

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12. Fil. 09.07
RAQAMLI ILMIY KENGASH
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

RASHIDOVA UMIDA MANSUROVNA

O'ZBEK TILI FRAZEOLOGIZMLARINING FUNKSIONAL-STILISTIK VA
LINGVOMADANIY TADQIQI

10.00.01 – O'zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI

Samarqand – 2026

UO'K: 494.3

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Content of dissertation abstract of doctor on philological sciences (DSc)

Оглавление автореферата диссертации доктора филологии (DSc)

Rashidova Umida Mansurovna

O'zbek tili frazeologizmlarining funksional-stilistik va lingvomadaniy tadqiqi3

Rashidova Umida Mansurovna

Functional-stylistic and lingvoculturological study of phraseological units of the Uzbek language41

Рашидова Умида Мансуровна

Функционально-стилистическое и лингвокультурологическое изучение фразеологизмов узбекского языка79

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ86

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12. Fil. 09.07
RAQAMLI ILMIY KENGASH
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

RASHIDOVA UMIDA MANSUROVNA

O'ZBEK TILI FRAZEOLOGIZMLARINING FUNKSIONAL-STILISTIK VA
LINGVOMADANIY TADQIQI

10.00.01 – O'zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI

AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.DSc/Fil308 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifaning samdu.uz hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: Karimov Suyun Amirovich

filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Mamatov Abdug'afur Eshonqulovich

filologiya fanlari doktori, professor

Yuldosheva Nilufar Ergashevna

filologiya fanlari doktori, professor

Abjalova Manzura Abdurashetovna

filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.09.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "___" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, 2 – ARM binosi, 3-qavat Faollar zali. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 139-18-92; faks(8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "___" _____ tarqatildi.
(2026-yil "___" _____dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi)

J.D. Eltazarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

D.D. Marupova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

X.Z. Xayrullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida frazeologik birliklar tilning milliy-madaniy xotirasini, konseptual mazmunini va kommunikativ imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim vositalardan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy lingvistika amaliyotida frazemalarning funksional-uslubiy taqsimotini aniqlashtirish, ularning nutqiy voqelanish qonuniyatlarini belgilash, lingvomadaniy mazmunini ochib berish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Biroq frazeologik birliklarning funksional uslublar kesimidagi qo'llanish xususiyatlari, uslubiy differensiatsiyasi, pragmatik imkoniyatlari yuzasidan yagona nazariy yondashuv hamda izchil tavsif tizimi to'liq shakllanmagan. Shu bois frazeologizmlarning funksional-stilistik xususiyatlarini yagona konseptual asosda tizimlashtirish, frazemalarning uslubiy va pragmatik salohiyatini zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida izohlash bugungi tilshunoslik oldida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida frazeologik birliklarning semantik maydondagi funksional-stilistik va lingvomadaniy jihatdan voqelanishini ko'rsatish tendensiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayonda adabiy tilning uslubiy imkoniyatlarini to'liq ochib berish uchun frazeologik birliklarning semantik tuzilishi, implitsit ma'no qatlamlari, pragmatik salohiyati hamda kommunikativ vazifalarini aniqlashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda frazeologizmlarning badiiy, publitsistik, ilmiy, rasmiy va so'zlashuv uslublaridagi voqelanish mexanizmlari, uslubiy differensiatsiyasi, ekspressiv-emotsional imkoniyatlari hamda zamonaviy frazeografiya, korpus lingvistikasi va

lingvodidaktika uchun zarur nazariy asoslarni o'rganish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda tilshunoslik sohasidagi frazeologik birliklarni o'rganishda jiddiy yutuqlarga erishilmoqda. Shu bilan birga, yaxlit shakliy va mazmuniy strukturaga ega bo'lgan frazeologizmlarning tilda amal qilinishining falsafiy-gnoseologik, milliy-psixologik, lingvomadaniy va etnomadaniy aspektlarini o'rganish o'zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda. "Raqamli makonda davlat tilini keng joriy etishga mo'ljallangan ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, o'zbek tilini axborot texnologiyalari sohasidagi yirik dasturlar tili qatoriga kiritish choralari ko'rish ham dolzarb vazifamiz bo'lib qoladi". Shu sababli tilimizning nodir boyliklaridan sanalgan frazeologizmlarning funksional-stilistik va lingvomadaniy xususiyatlarini zamonaviy tadqiq usullari bilan ochib berish dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-405-son "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Frazeologik birliklarning funksional-stilistik va lingvomadaniy xususiyatlari bo'yicha jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida tadqiqot ishlari amalga oshirilgan, jumladan: California University, Indiana University (AQSh), Berlin-Brandenburgische Akademie der Wissenschaften AV, Berlin Humboldt Universität, Goethe Universität (Germaniya), Hacettepe Üniversitesi, Bilkent Üniversitesi, İstanbul Üniversitesi, Yıldız Teknik Üniversitesi, Gaziantep Üniversitesi (Turkiya), London University, Oxford

University (Angliya), Tokio University (Yaponiya), Rossiya Fanlar akademiyasi Uzoq Sharq bo'limi, Rossiya islom instituti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Qozon federal universiteti (Rossiya), Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası Dilçilik Institutu, Muhammad Fuzuliy nomidagi Ozarbayjon qo'lyozmalar instituti (Ozarbayjon), L.N.Gumilev Eurasian National University (Qozog'iston), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti (O'zbekiston).

Frazeologik birliklarning funksional-stilistik va lingvomadaniy xususiyatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: frazeologik birliklarning funksional-stilistik qatlamlanishi, ularning badiiy, publitsistik, so'zlashuv va rasmiy-idoraviy nutq uslublaridagi qo'llanish xususiyatlari, emotsional-ekspressiv va baholovchi ma'nolari, shuningdek, pragmatik vazifalari atroflicha ochib berilgan (California University, Indiana University, AQSh); frazeologizmlarning semantik tuzilishi, kontekstda aktual ma'no kasb etishi, nutq vaziyatiga bog'liq holda stilistik rang-baranglik namoyon etishi masalalari ochib berilgan (Berlin Humboldt Universitt, Goethe Universitt, Germaniya); frazeologik birliklarning lingvomadaniy tabiati, ularning milliy mentalitet, an'ana va madaniy kodlar bilan aloqasi, ichki obrazi hamda etimologik asoslari aniqlangan (Oxford University, London University, Angliya; Tokio University, Yaponiya); turkiy tillarda frazeologizmlarning umumiy va xususiy jihatlari, qiyosiy-tipologik tahlili, madaniy konnotatsiyasi va tarjimada berilishi muammolari tadqiq etilgan (Istanbul niversitesi, Hacettepe niversitesi, Bilkent niversitesi, Yildiz Teknik niversitesi, Gaziantep niversitesi, Turkiya), rus va boshqa slavyan tillari materialida frazeologizmlarning funksional-stilistik imkoniyatlari, diskurs turlarida qo'llanishi, badiiy matnda obraz yaratishdagi roli, shuningdek, frazeologik lug'atlar tuzishning nazariy va amaliy masalalari yoritilgan (Rossiya Fanlar akademiyasi, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Qozon federal universiteti, Rossiya); Ozarbayjon va Qozog'iston tilshunosligida frazeologik birliklarning lingvomadaniy talqini, milliy madaniyatni aks ettiruvchi konseptlar bilan bog'liqligi, paremiologiya va frazeologiya o'zaro munosabati masalalari tahlil qilingan (Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi Tilshunoslik instituti; L.N.Gumilev nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti, Qozog'iston), o'zbek tilshunosligida esa frazeologizmlarning funksional-stilistik xususiyatlari, emotsional-ekspressiv va baholovchi ma'nolari, lingvomadaniy konnotatsiyasi, badiiy va publitsistik matnlardagi o'rni, shuningdek, frazeologik lug'atchilik va korpus lingvistikasi doirasida ularni tavsiflash masalalari o'rganilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti).

Dunyoda frazeologik birliklarning funksional-stilistik va lingvomadaniy xususiyatlari bo'yicha, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: frazeologik birliklarning semantik, kognitiv va lingvomadaniy tabiatini aniqlash; ularning funksional-stilistik xususiyatlari hamda kommunikativ-pragmatik imkoniyatlarini turli diskurslarda tadqiq etish; frazeologizmlarning milliy-madaniy konseptlar va etnomadaniy kodlar bilan bog'liqligini ochib berish; frazeologik birliklarning korpus lingvistikasi, kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tavsifini yaratish; qiyosiy frazeologiya va tarjimashunoslik doirasida frazeologik ekvivalentlik muammolarini o'rganish; frazeografiyaning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish hamda elektron frazeologik lug'atlarni ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Frazeologiya tilshunoslikning alohida sohasi sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon tilshunosligida faol rivojlana boshladi. Frazeologik birliklarning nazariy asoslari, ularning semantik, struktur va funksional xususiyatlari masalalari rus tilshunosligida V.V.Vinogradov, N.M.Shanskiy, A.V.Kunin, V.N.Teliya, A.I.Molotkov, A.M.Babkin, A.V.Jukov kabi olimlar tomonidan keng tadqiq etildi.

"Funksional uslub" termini tilshunoslikka akademik V.V.Vinogradov tomonidan kiritilgan. Olimning ta'kidlashicha, funksional uslublar yagona adabiy til doirasida shakllanib, uning tizimiy imkoniyatlarini namoyon etadi. Biroq har bir uslub tilning barcha qatlamlarini emas, balki muayyan kommunikativ ehtiyoj va vazifalarga xizmat qiluvchi tarkibiy qismini qamrab oladi". Mazkur qarash frazeologik birliklarning funksional-stilistik xususiyatlarini tadqiq etishda ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Zero, frazeologizmlar til tizimining barcha uslublarida bir xil darajada faol qo'llanmaydi. Ularning ayrimlari so'zlashuv va badiiy uslub uchun xos bo'lsa, boshqalari publitsistik yoki ilmiy nutqda muayyan uslubiy vazifani bajaradi. Shuning uchun frazeologik birliklarning uslubiy imkoniyatlarini va ekspressiv-emotsional bo'yoqdorligini aniqlashda ularning funksional uslublar doirasidagi qo'llanish xususiyatlarini hisobga olish zarur.

V.N.Teliya tomonidan ishlab chiqilgan lingvomadaniy yondashuv esa frazeologik birliklarni xalq madaniyati, mentaliteti va qadriyatlarini bilan bog'liq holda o'rganish imkonini berdi.

O'zbek tilshunosligida frazeologiya masalalarining ilmiy tadqiqi Sh.Rahmatullayev nomi bilan bog'liq bo'lib, olim tomonidan o'zbek frazeologiyasining nazariy asoslari ishlab chiqildi, frazeologik birliklarning semantik va grammatik xususiyatlari yoritildi. Keyingi davrlarda B.Yo'ldoshev, Abdimurod Mamatov, Abdug'ofir Mamatov, B.Jo'rayeva, K.Bozorboyev, D.Xudoyberganova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan frazeologizmlarning lingvokognitiv, pragmatik, uslubiy hamda

lingvomadaniy jihatlarini tadqiq qilindi. Frazologizmlarning qiyosiy tadqiqi ham o'zbek tilshunosligida muhim yo'nalishlardan biri sifatida shakllanib, frazeologik birliklarining turkiy va noqarindosh tillardagi muqobillari bilan semantik, struktur va lingvomadaniy jihatdan qiyoslanishiga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirildi. Bunday izlanishlar frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini, ularning etnomadaniy asoslarini hamda turli tillarda voqelanish qonuniyatlarini aniqlash imkonini berdi.

B.Yo'ldoshevning doktorlik dissertatsiyasida ilk bor o'zbek tilshunosligidagi frazeologizmlar funksional-uslubiy jihatdan sistem holda o'rganildi, ularning funksional-uslubiy tasnifi amalga oshirilib, badiiy matndagi uzual va okkazonal vazifalari tahlil qilindi. Shuningdek, mazkur tadqiqot frazeologik me'yorning adabiy til normalari – semantika, imlo, punktuatsiya bilan aloqadorligi yechimiga qaratilganligi bilan ham diqqatga sazovordir.

So'nggi yillarda lingvokulturologiya fanining rivojlanishi natijasida frazeologik birliklarni konsept, madaniy kod, stereotip, etalon va lingvokulturema kabi tushunchalar bilan bog'liq holda tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq mavjud ishlarda frazeologik birliklarning milliy-madaniy mazmunini konseptual maydonlar asosida izchil o'rganish, ularning lingvomadaniy xususiyatlarini tizimli tavsiflash masalalari to'liq yechim topmagan.

Shu jihatdan, o'zbek tilidagi frazeologik birliklarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq etish, ularda aks etgan milliy qadriyatlar, madaniy kodlar va konseptual mazmunni aniqlash mazkur dissertatsiyaning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bog'liqligi. Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "O'zbek tili birliklarining funksional-pragmatik va semantik-uslubiy tahlili (sinxron va diaxron aspekt)" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tili frazeologizmlarining funksional-stilistik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek tili frazeologik birliklarining so'zlashuv, ilmiy, rasmiy-idoraviy, badiiy, publitsistik va diniy funksional uslublarda qo'llanish xususiyatlarini qiyosiy asosda tahlil qilish, ularning kommunikativ imkoniyatlari, kontekst ta'sirida yuzaga chiqadigan nutqiy voqelanish shakllari, stilistik cheklanganlik darajasi hamda diniy-madaniy mazmunni ifodalashdagi funksiyalarini aniqlash;

frazologizmlarda milliy qadriyatlar va mentalitetning ifodalanish

xususiyatlarini aniqlash, frazeologizm, konsept va lingvokulturema tushunchalarining milliy tafakkur, til va madaniyat tizimidagi o'zaro mazmuniy hamda funksional munosabatini ochib berish;

o'zbek leksikografik lug'atlarida frazeologik birliklarning berilish tamoyillarini lingvistik mezonlar asosida tahlil qilish, ularning semantik tuzilishi, uslubiy belgisi, emotsional-ekspressiv bo'yog'i hamda lingvomadaniy tavsifini aks ettirishdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlash;

til korpuslarida frazeologik birliklar bazasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, frazeologik birliklarni avtomatik aniqlash, morfologik variantlarini yagona modelga keltirish, semantik teglar bilan belgilash hamda mashina tarjimasida muqobil ekvivalentlarni tanlash imkoniyatlarini asoslash;

stilistik ma'no tushunchasining frazeologik birliklar misolida namoyon bo'lish xususiyatlarini yoritish, frazeologizmlarning emotsional-ekspressiv, baholovchi, obrazli va uslubiy vazifalariga ko'ra shakllangan funksional-stilistik qatlamlarini aniqlash va tavsiflash, shuningdek, frazeologik birliklar semantik tuzilishida motivatsiya va abstraksiyaning o'rnini hamda ularning frazeologik ma'no shakllanishidagi ahamiyatini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek tili so'zlashuv, badiiy, publitsistik, ilmiy, rasmiy va diniy uslublarida keng tarqalgan frazeologik birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning funksional-stilistik va lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada sistem-struktur, stilistik, tasniflash, tavsiflash, kognitiv, pragmatik, lingvokulturologik, komponent va lingvostatistik tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning so'zlashuv, ilmiy, rasmiy-idoraviy, badiiy, publitsistik va diniy uslublarda qo'llanish xususiyatlari qiyosiy asosda ochib berilib, ularning har bir funksional uslubga xos kommunikativ vazifalarni bajarish imkoniyatlari, kontekst ta'sirida yuzaga chiqadigan nutqiy voqelanish shakllari hamda uslubiy me'yorlar bilan belgilanadigan stilistik cheklanganlik darajasi *bir yoqadan bosh chiqarmoq, ko'zining oq-u qorasi, gapning po'stkallasini aytmoq* kabi turli uslubiy qatlamlarga mansub frazeologik birliklarning funksional voqelanishi misolida aniqlangan;

frazeologizmlarda milliy qadriyatlar va mentalitet ifodasi aniqlanib, *non sindirmoq, do'ppisi yerga tushmoq, boshida ko'tarib yurmoq, ko'ngli keng, qo'li ochiq* kabi frazeologik birliklarda mujassamlashgan oila, e'tiqod, or-nomus, hurmat, mehmondo'stlik, saxovat va bag'rikenglik konseptlari asosida frazeologizm, konsept va lingvokulturema tushunchalarining milliy tafakkur, til va madaniyatning o'zaro integratsiyalashgan tizimidagi mazmuniy hamda funksional munosabati ochib berilgan;

o'zbek leksikografik lug'atlarida frazeologizmlarning berilish tamoyillari lingvistik mezonlar asosida baholanib, "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbek tilining frazeologik lug'ati", qiyosiy hamda zamonaviy elektron lug'atlar materiallari asosida *boshi egilmoq, yuragi orqasiga tortmoq, ko'zi ochilmoq, qo'li kalta, ko'ngliga tugmoq* kabi frazeologik birliklarning semantik tuzilishi, uslubiy belgisi, emotsional-ekspressiv bo'yog'i va lingvomadaniy tavsifini aks ettirishdagi leksikografik tavsifning ilmiy yutuqlari hamda tizimli tavsif va uslubiy belgilash bilan bog'liq kamchiliklar isbotlangan;

til korpuslarida frazeologizmlar bazasini shakllantirishning nazariy va amaliy masalalari ishlab chiqilib, *bosh qotirmoq, boshi berk ko'cha, yuragiga yaqin olmoq, kapalagi uchmoq* kabi ko'pma'noli va uslubiy xoslangan frazeologizmlarni avtomatik aniqlash, morfologik variantlarini yagona modelga keltirish, semantik teglar bilan belgilash hamda muqobil tarjima ekvivalentlarini tanlash mexanizmlarining mashina tarjimasini sifatini oshirishdagi samaradorligi asoslangan;

stilistik ma'no tushunchasi frazeologik birliklar misolida tizimli ravishda izohlanib, *og'zi qulog'ida, yuragi qon bo'lmoq, qovog'idan qor yog'moq, ich-etini yemoq, qo'li uzun, tili qisq, jon kuydirmoq, boshi osmonga yetmoq* kabi frazeologizmlarning **emotsional-ekspressiv, baholovchi, obrazli hamda uslubiy vazifalariga ko'ra shakllangan** funksional-stilistik qatlamlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning funksional-stilistik va lingvomadaniy xususiyatlarini tizimli ravishda tadqiq etish asosida ularning semantik, pragmatik va diskursiv imkoniyatlari aniqlashtirilgan hamda o'zbek frazeologiyasining nazariy-metodologik bazasini boyituvchi ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan;

frazeologik birliklarning ekspressivlik, baholovchanlik va milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qilib, tilshunoslik yo'nalishlarida yaratiladigan darslik, o'quv qo'llanma va maxsus kurslarning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishga imkon yaratishi dalillangan;

frazeologizmlarning izohli, tematik va lingvomadaniy lug'atlarini yaratish, ularning semantik-struktur va funksional xususiyatlarini izchil tavsiflash hamda frazeologik birliklarning lisoniy tabiatini ilmiy jihatdan asoslab berishda muhim manba sifatida foydalanish mumkinligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlilga tortilgan materiallar o'zbek tilining lingvistik tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asosliligi, metodologik mukammalligi, shuningdek, qo'yilgan masalalarning aniqligi, tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullar hamda faktik til materialining "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbek tilining frazeologik lug'ati", "O'zbek tilining etimologik lug'ati" va turkiy

tillarga bir qator leksikografik manbalarga qiyoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek tilidagi frazeologizmlarning funksional-stilistik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini tizimli ravishda yoritib berishi bilan frazeologiya, stilistika va lingvomadaniyatshunoslik sohalarini nazariy jihatdan boyitilib, frazeologik birliklarning semantik motivatsiyasi, funksional-stilistik qatlamlanishi hamda lingvomadaniy talqinini izohlashda yangi ilmiy yondashuvlarni taklif etilib, frazeologik birliklarning nutq uslublari bo'yicha differentsiatsiyasi, ularning konnotativ, pragmatik imkoniyatlari, ichki obrazi va milliy-madaniy xususiyati yuzasidan olib borilgan tahlillar frazeologik stilistikaning nazariy asoslarini yoritilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zbek tili bo'yicha izohli va frazeologik lug'atlarni tuzishda, frazemalarning uslubiy belgilarini, konnotativ va madaniy komponentlarini to'liqroq aks ettirishda qo'llanilishi mumkinligi, shuningdek, tadqiqot materiali oliy ta'lim muassasalarida "O'zbek tilining amaliy stilistikasi", "Matn lingvistikasi", "Lingvomadaniyatshunoslik", "Kognitiv tilshunoslik" fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda, maxsus kurslar hamda o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda foydalanishga xizmat qilishi, bundan tashqari, frazeologik birliklarning funksional-stilistik va lingvomadaniy xususiyatlariga doir xulosalar badiiy va publitsistik matnlarni tahlil qilish, tarjima jarayonida milliy-madaniy ma'nolarni mazmunan to'g'ri yetkazish hamda nutq madaniyatini oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek tilidagi frazeologizmlarning funksional-stilistik hamda lingvomadaniy xususiyatlari tahlilini amalga oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar:

o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning so'zlashuv, ilmiy, rasmiy-idoraviy, badiiy, publitsistik va diniy uslublarda qo'llanish xususiyatlari hamda *bir yoqadan bosh chiqarmoq, ko'zining oq-u qorasi, gapning po'stkallasini aytmoq* kabi frazeologik birliklarning **nutqiy voqelanish shakllari** hamda **uslubiy me'yorlar bilan belgilanadigan stilistik cheklanganlik darajasi** aniqlangan o'rinlardan 2021-2023-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida amalga oshirilgan PZ-2020042022 raqamli "Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish" loyihasi doirasida qo'llanilgan (ning 2022-yil 30-apreldagi 01/6-855-son ma'lumotnomasi). Natijada frazeologik birliklarning uslubiy va funksional xususiyatlarini o'qitishga mo'ljallangan elektron ta'lim platformasining ilmiy-metodik ta'minoti takomillashtirilib, ulardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlari kengaytirilgan;

frazeologizmlarda milliy qadriyatlar va mentalitet ifodasiga oid, xususan, *non sindirmoq, boshida ko'tarib yurmoq, qo'li ochiq* kabi frazeologik birliklarning **milliy tafakkur, til va madaniyatning o'zaro integratsiyalashgan tizimidagi mazmuniy hamda funksional munosabati** ochib berilganligiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2012-2016 yillarda bajarilgan G002 "Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2025-yil 24-oktabrdagi 1701/117-son ma'lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq folklori va adabiyoti namunalarida qo'llangan frazeologik birliklarning milliy qadriyatlar, mentalitet va lingvomadaniy mazmunni ifodalash xususiyatlari aniqlashtirilib, ularning konseptual mazmunini tavsiflash mezonlari boyitilgan hamda mazkur xulosalar folklor janrlarini nazariy jihatdan tadqiq etishda samarali qo'llanilgan;

o'zbek leksikografik lug'atlarida frazeologizmlarning berilish tamoyillari lingvistik mezonlar asosida baholanib, "O'zbek tilining izohli lug'ati", "O'zbek tilining frazeologik lug'ati", qiyosiy hamda zamonaviy elektron lug'atlar materiallari asosida *boshi egilmoq, yuragi orqasiga tortmoq, ko'zi ochilmoq, qo'li kalta, ko'ngliga tugmoq* kabi frazeologik birliklarning semantik tuzilishi, uslubiy belgisi, emotsional-ekspressiv bo'yog'i va lingvomadaniy tavsifini aks ettirishdagi yutuq hamda kamchiliklar ilmiy asosda isbotlanganligiga oid xulosalardan "O'zbek tili sinonimlarining o'quv lug'ati"da foydalanilgan (H.Dadaboyev, M.Abjalova, U.Rashidova. O'zbek tili sinonimlarining o'quv lug'ati. – Toshkent, 2023. – 625 b.). Natijada lug'at tarkibiga sinonim frazeologizmlar jadvali kiritilib, ularning semantik tuzilishi, uslubiy belgilanishi va lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy tavsiflash imkoniyatlari kengaytirilib, frazeologik birliklarni leksikografik tavsiflashning ilmiy-metodik asoslari takomillashtirilgan;

til korpuslarida frazeologizmlar bazasini shakllantirishning nazariy va amaliy masalalari ishlab chiqilib, avtomatik tarjima jarayonlarini takomillashtirishda frazeologik ma'lumotlar bazasidan foydalanishning **frazeologik birliklarning semantik yaxlitligi, uslubiy xoslanganligi va lingvomadaniy mazmunini saqlashga xizmat qiluvchi hamda** ularning muqobil ekvivalentlarini to'g'ri tanlash va kontekstga mos qo'llashni ta'minlovchi samarali mexanizmlari mavjudligi asosida olinga xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda amalga oshirilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2025-yil 24-oktabrdagi 1701/117-son ma'lumotnomasi). Natijada xalq og'zaki ijodi namunalarida uchraydigan frazeologik birliklarning semantik, uslubiy va lingvomadaniy xususiyatlarini korpus hamda leksikografik manbalar asosida tavsiflash mezonlari takomillashtirilib, ularni ilmiy tasniflash va izohlashning nazariy asoslari boyitilgan;

stilistik ma'no tushunchasi frazeologik birliklar misolida tizimli ravishda izohlanib, *og'zi qulog'ida, yuragi qon bo'lmoq, qovog'idan qor yog'moq, ich-etini yemoq, qo'li uzun, tili qisq, jon kuydirmoq, boshi osmonga yetmoq* kabi frazeologizmlarning **emotsional-ekspressiv, baholovchi, obrazli hamda uslubiy vazifalariga ko'ra shakllangan funksional-stilistik** qatlamlariga oid ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2023-2024-yillarda bajarilgan "Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasining ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 30-sentabrdagi 01/4-4627-son ma'lumotnomasi). Natijada Alisher Navoiy mualliflik korpusida frazeologik birliklar, maqollar va hikmatli so'zlarning funksional-stilistik tavsifi ishlab chiqilib, ularni semantik hamda uslubiy belgilar asosida izlash va tasniflash imkoniyatlari kengaytirigan;

stilistik ma'no tushunchasi frazeologik birliklar misolida tizimli ravishda izohlanib, frazeologizmlarning emotsional-ekspressiv, baholovchi, obrazli hamda uslubiy vazifalariga ko'ra shakllangan funksional-stilistik qatlamlariga oid ilmiy xulosalardan "O'zbekiston" teleradiokanalining "Bedorlik", "Ta'lim va taraqqiyot" eshittirishlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokanalining 2026-yil 25-yanvardagi 0818-1-87 son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuvlarda o'zbek frazeologik birliklarining emotsional-ekspressiv va lingvomadaniy imkoniyatlarini ilmiy asosda yoritish ta'minlanib, ularning ma'rifiy, tarbiyaviy hamda ilmiy-ommabop ahamiyati oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 17 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 45 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 12 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnal nashr etilgan.

Dissertatsiyasining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, hajmi 260 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

“Kirish” qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr qilingan ishlar, dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi ***“Oʻzbek tilida frazeologizmlarning funksional-stilistik tadqiqi lingvistik muammo sifatida”*** deb nomlangan. Bobning ***“Frazeologik stilistika haqida umumiy tushuncha”*** nomli birinchi boʻlimiga frazeologiyaning nazariy asoslari, uning stilistika bilan uzviy bogʻliqligi, frazeologik birliklarning nutq jarayonidagi funksional imkoniyatlari atroflicha tahlil qilingan.

Stilistikaning bir tarmogʻi sifatida eʼtirof etiluvchi “frazeologik stilistika” atamasi hamdoʻstlik mamlakatlari tilshunosligida XX asrning 60-yillaridan boshlab qoʻllanila boshladi. Dastlab bu atama V.L.Arxaevskiy va A.V.Kunin asarlarida uchraydi. Keyinchalik mazkur termindan boshqa frazeolog olimlar ham foydalandilar. Xususan, V.L.Arxaevskiy uslubiy jihatdan muvofiq va nomuvofiq frazeologik variantlarni yigʻish va tadqiq etish frazeologik stilistikaning asosiy vazifalaridan biri ekanini alohida taʼkidlagan.

Anʼanaviy tilshunoslikda lingvistik stilistika uch yoʻnalishda oʻrganiladi: leksik, frazeologik va grammatik stilistika. *Frazeologik stilistika*ning muhim vazifalaridan biri frazeologik birliklarning uslub jihatdan farqlanishini, ularning qoʻllanish xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Aksariyat tilshunoslarning fikricha, *frazeologik stilistika* frazemalarning uslubiy qatlamlarini, ularning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini, frazemalarning matn tarkibidagi uzual va okkazonal vazifalarini, frazemalardan nutq jarayonida ijodiy foydalanish usullarini, frazeologiyaning adabiy til meʼyori va nutq madaniyati bilan bogʻliq muammolarini tadqiq etishi lozim. Frazeologik uslubiyatning qayd etilgan bunday muammolaridan olimlar diqqati koʻproq badiiy matnda frazemalarni individual-ijodiy qoʻllash usullarini aniqlash bilan shugʻullanishi lozim.

Birinchi bobning ikkinchi boʻlimi ***“Stilistik maʼno va frazeologik birlikning funksional-stilistik qatlamlari”*** deb nomlangan boʻlib, frazeologik birliklarning uslublararo qoʻllanilish xususiyatlari haqida soʻz yuritilgan. Dastlab *stilistik maʼno* tushunchasining nazariy talqini berilib, uning emotsional-ekspressiv maʼno bilan aloqasi yoritilgan.

Semasiologiyaga oid tadqiqotlarda “stilistik maʼno”, “til birliklaridagi umumiy-emotsional baho yoki ekspressiv maʼnoning ifodalanishi”, “uzual

va okkazonal leksik ma'nolar" kabi atamalar qo'llanilmoqda. T.G.Vinokur mazkur hodisani nomlash uchun "stilistik konnotatsiya" atamasidan foydalangan. D.N.Shmelev leksik va stilistik ma'nolarni o'zaro qiyoslab, individual, sof leksik ma'noni grammatik va ekspressiv-stilistik elementlar ajratilgandan keyingi "qoldiq" deb hisoblaydi. T.G.Vinokur D.Shmelev fikrini davom ettirib, shunday yozadi: "tadqiqotning semantik-uslubiy yo'nalishida so'z (so'z birikmasi, konstruksiya)"ning umumiy semantikasiga qo'shiladigan stilistik ma'noni "qoldiq", aniqrog'i "qo'shimcha", deb hisoblash mumkin. I.V.Arnold konnotatsiya tarkibiga "emotsionallik", "ekspressivlik", "baholash" va "uslubiy bo'yoqdorlik"ni kiritadi.

Biz **stilistik ma'no** deganda frazeologik birlikning semantik tuzilishida ifodalangan **badiiy-obrazli, emotsional, ekspressiv va baholovchi ma'nolar hamda ularning turlarini** tushunamiz. Demak, **emotsional-ekspressiv ma'no** stilistik ma'noning faqat bir qismi, ya'ni uning ifoda qatlamini tashkil etadi. Shuningdek, **stilistik ma'noni funksional-stilistik ma'nodan farqlash** lozim. *Funksional-stilistik ma'no* frazeologik birlikning qaysi funksional uslubga mansubligini ko'rsatuvchi belgidir.

Frazeologik birlik (FB)lar tilning **semantik va stilistik tizimlarini** bog'lab turuvchi muhim vosita sifatida faqat axborot tashuvchi emas, balki **so'zlovchining voqelikka bo'lgan hissiy va subyektiv munosabatini** ham ifodalovchi vositadir. Shu jihatdan, frazeologik birliklardagi **stilistik ma'no** voqelikni anglashning **emotsional-ekspressiv jihatini** aks ettiradi hamda uning mazmun-qimmatini belgilaydi. Stilistik ma'no o'z navbatida **emotsionallik** va **ekspressivlik** kabi tarkibiy qismlardan tashkil topadi.

Masalan, *ko'zining qorachig'iday asramoq* frazeologik birligining denotativ ma'nosi – "o'ta darajada avaylab, g'amxo'rlik ko'rsatish" [O'TFL, 256]. Uning funksional-stilistik xoslanishi badiiy va publitsistik nutqqa xos bo'lib, rasmiy uslubda deyarli qo'llanmaydi. Emotsional-ekspressiv ma'nosi esa *kuchli mehr, iliq munosabat, hayajon va qadrlash* hislarini ifodalaydi. Iborada bir vaqtning o'zida ham funksional-stilistik (qaysi nutq turida ishlatilishi) ham emotsional-ekspressiv (muhabbat, ehtiyot, qadrlash) ma'nolar mujassam bo'lgan.

Birinchi bobning uchinchi bo'limi *"Frazeologik birliklar semantik tuzilishida motivatsiya va abstraksiya"* deb nomlanib, bo'limda frazeologik birliklarning semantik tuzilishida motivatsiya va abstraksiya jarayonlarining o'рни hamda ularning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratilgan. FB ma'nosining shakllanishida komponentlarning to'g'ridan to'g'ri leksik ma'nolari bilan bir qatorda, obrazli tafakkur, assotsiativ bog'lanishlar va milliy-madaniy tajriba ham muhim omil sifatida namoyon bo'lishi asoslab berilgan.

Til birliklarining semantik tuzilishi ularning shakllanishida ishtirok etuvchi turli lingvistik omillar bilan motivatsiyalanadi. Shu bois

tilshunoslikda ma'noning motivatsiyalanganligi muammosi muhim nazariy masalalardan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, FBlar semantikasi so'z semantikasiga nisbatan murakkab va ko'p qatlamli bo'lib, ularning ma'nosi ko'pincha ichki shakl, obrazlilik hamda struktur-semantik omillar bilan bog'liq holda yuzaga keladi. F. de Sossyur ta'kidlaganidek, til belgilarining motivatsiyalanganligi ularning sintagmatik tuzilishi va tarkibiy qismlarining semantik shaffofligi bilan belgilanadi. Frazeologik birliklarda esa bu shaffoflik nisbiy bo'lib, ma'no ko'pincha komponentlarning bevosita lug'aviy ma'nolaridan chekinib, umumlashgan, ko'chma va abstrakt mazmunga ega bo'ladi.

D.O.Dobrovolskiy frazeologizmning semantik motivlanganligini frazeologiyaga xos universal qonuniyatlardan biri sifatida baholaydi. Har qanday frazeologik birlik tarkibiy qismlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelgan yangi ma'no muayyan obrazga tayanishi bilan xarakterlanadi; bu obraz yoki komponentlardan birining ko'chma ma'noda qayta anglanishi yoki ularning o'zaro semantik aloqasi natijasida vujudga keladi. Shu asosda D.O.Dobrovolskiy motivlanganlikning ikki turini farqlaydi: tayanch komponentga asoslangan *konstituyent (komponent) motivlanganlik* va butun vaziyatga tayanadigan *yaxlit (umumiy) motivlanganlik*. Komponent motivlanganlikka somatik komponentli frazeologizmlar misol bo'la oladi (masalan, *boshi osmonda, ko'zini yog' bosmoq, yuragini hovuchlamoq, oyog'ini uzmaslik* kabi.). A.D.Rayxshteyn ta'kidlashicha, "tadqiq etilgan barcha tillarda bosh – aql-idrok, yurak – his-tuyg'ular, og'iz va til – nutq, qo'l esa amaliy harakatlar bilan bog'lanadi". Yaxlit motivlanganlik holatida esa frazeologik birlikning aktual ma'nosi uning asosida yotuvchi butun vaziyat obrazi bilan shartlanadi (masalan, rus tilida *гадать на кофейной гуще* ingliz tilida *read tea leaves*). Bunday motivlanganlik komponent motivlanganlikka zid emas, aksincha, uning negizida shakllanadi.

Frazeologik motivlanganlik frazeologik birlik bilan uning o'zgaruvchan prototipi o'rtasida semantik aloqaning mavjudligi bilan izohlanadi. Ushbu prototip FB bilan uni yuzaga keltirgan real vaziyat o'rtasida vositachilik qiluvchi oraliq bo'g'in hisoblanadi; prototip mavjud bo'lmagan holatda esa aloqa FB bilan uning asosida yotuvchi noreal vaziyat o'rtasida yoki to'g'ri ma'noda qo'llangan komponent bilan ko'chma ma'noda qayta anglangan komponent o'rtasida, shuningdek, hosila frazeologik birlik bilan u kelib chiqqan bosh frazeologizm o'rtasida namoyon bo'ladi. Masalan, *og'zidan suvi oqmoq* frazeologizmi prototip sifatida ovqatni ko'rganda yoki hidlaganda og'izda suv to'planishi bilan bog'liq real vaziyatga tayanadi va shu obraz asosida "qattiq qiziqmoq, xohish uyg'onishi" ma'nosi shakllanadi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi ***"O'zbek tilidagi frazemalarning nutq uslublari qo'llanishi va ularning funksional-stilistik vazifalari"*** deb nomlanadi. Mazkur bobning ***"So'zlashuv uslubi va unda***

frazeologizmlarning funksional-stilistik vazifalari” nomli birinchi boʻlimida oʻzbek soʻzlashuv nutqining oʻziga xos xususiyatlari hamda mazkur uslubda frazeologik birliklarning tutgan oʻrni va bajaradigan funksional-stilistik vazifalari yoritilgan.

Oddiy soʻzlashuv nutqi iboralari ogʻzaki soʻzlashuvda va badiiy nutqda, asosan, personajlar nutqida keng qoʻllanadi. Olimlar oddiy soʻzlashuv nutqi iboralarini xarakterlaganda, ularning bir qismi maqol va matallarning qisqargan shakli sifatida yuzaga kelganini taʼkidlaydi. Masalan, “Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi” degan maqol soʻzlashuv uslubida “qorasi yuqmoq” tarzida ishlatiladi, bunda yaqinlik natijasida salbiy taʼsirga uchrash maʼnosi saqlanadi *Odam yigʻildi, xonatlas koʻylak kiygan semiz bir xotin lapanglaganicha Muhayyoga yaqin borib “Oʻl bu kuningdan! Senga oʻxshaganlarning qorasi yuqib, oʻqigan qizlarning hammasi haromga oʻxshab qoldi!” – dedi. (327).* Yoki “Oʻtgan ishga salavot” – *salavot aytmoq* (oʻtgan ishga qaytib boʻlmasligi, undan voz kechish), “Olov boʻlmasa, tutun chiqmaydi” – *tutuni bor* (sababsiz gap tarqalmasligi), “Til – qilichdan oʻtkir” – *tili oʻtkir* (keskin, taʼsirchan nutq egasi), “It hurar, karvon oʻtar” – *karvon oʻtadi* (befoyda gap-soʻzga eʼtibor bermaslik) tarzida qoʻllanilib, frazeologik birlik sifatida soʻzlashuv uslubida ixchamlilik, ekspressivlik va tez anglashiladigan semantikani taʼminlashga xizmat qiladi.

B.Yoʻldoshev tadqiqotlarida oddiy soʻzlashuv nutqi iboralari oʻzbek adabiy tili frazeologik fondining 10 foizga yaqinini tashkil etishi taʼkidlangan. Olimlar oddiy soʻzlashuv nutqi iboralarini xarakterlaganda ularning qoʻpol-tushkunroq ottenkaga ega ekanligini qayd qiladi. Aslini olganda, qoʻpollik, dagʻallik ottenkasi oddiy soʻzlashuv nutqi iboralarning barchasiga xos xususiyat emas. Masalan, “Oyoq uchi bilan (yoki uchida) koʻrsatmoq” iborasi *mensimaslik, nazarga ilmaslik* maʼnolarini ifodalaydi, lekin bu iborada qoʻpollik elementlari sezilmaydi: “*Choʻri qiz boshimizga chiqib, bizlarni oyoq uchi bilan koʻrsatadi*” (Oybek). Yoki “oyoq uzatmoq” iborasi polisemantik xarakterga ega boʻlib, koʻchma maʼnoda “oʻlmoq, jon bermoq” maʼnosini bildiradi (OʻTIL, I, 523), bu ibora tarkibida dagʻallik, qoʻpollik ottenkasidan asar ham yoʻq, ammo mazkur iboralarning qoʻllanish shakli, maʼnosi hozirgi adabiy nutqimiz estetik meʼyorlariga unchalik mos emasligini alohida qayd etish oʻrinlidir.

Soʻzlashuv uslubiga oid frazeologizmlarning xarakterli xususiyatlaridan biri ularning **emotsional-ekspressiv boʻyoqdorligi**dir. Bunday iboralar nutqda soʻzlovchining kayfiyati, munosabati, bahosi va subyektiv munosabatini yaqqol ifodalaydi. Shu sababli ular koʻpincha baholovchi, kinoyaviy, hazil-mutoyiba yoki istehzo ohangida qoʻllanadi va jonli ogʻzaki nutqqa xos obrazlilikni kuchaytiradi: *zoʻriga tushmoq, achchigʻi qistamoq, chakagi tushmoq, chap ichakka ham yuq boʻlmaslik, boyagi-boyagi, boy xoʻjaning tayogʻi, bozori chaqqon, burnini suqmoq, boʻsagʻasi odam koʻrmagan, eldan*

burun, endi tushingizda ko'rasiz, gapiga kirmoq, tinkasi qurimoq kabi. Bobning ikkinchi bo'limi "*Ilmiy uslub va unda qo'llangan frazeologizmlarning funksional-stilistik vazifalari*" deya nomlanib, unda ilmiy nutqda qo'llanadigan frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning funksional-stilistik vazifalari hamda ilmiy matn tarkibidagi o'rni tizimli ravishda tahlil qilingan.

Ilmiy, shuningdek, rasmiy uslub frazeologiyasi borasida xorijiy tilshunos olimlar diqqati, asosan, ilmiy nutqda faol qo'llanadigan kollokatsiyalarning tavsifiga qaratilgan. O'zbek va rus tilshunosligiga oid tadqiqotlarda esa ilmiy nutq frazeologiyasiga ko'proq stilistik yondashuv ustuvor bo'lib, bunda ilmiy uslubning o'ziga xos jihatlari va terminologik birikmalari o'rganilgan. Obrazli va ekspressiv umumtil frazeologik birliklari bunday tadqiqotlarning obyekti sanalmaydi, balki ilmiy nutqda ekspressivlikni hosil qiluvchi belgi sifatida ilmiy uslubni o'rganishga bag'ishlangan ayrim ishlardagina qisman tilga olinadi.

Ta'kidlash joizki, o'zbek tilshunosligida ilmiy uslub matnlarida ekspressivlikning ta'sir vositasi sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari hozirga qadar maxsus tadqiqot obyekti bo'lmagan. Ekspressivlik va emotsionallik nisbatiga oid nazariy qarashlarning turli talqinlari mavjudligi, shuningdek, turli diskurslarda ekspressivlikning ifodalanishi bir xil tarzda, farqlanmasdan tavsiflangani bu sohada yanada chuqur tadqiqotlar o'tkazish zarurligini ko'rsatadi. Bizningcha, ilmiy diskursni ekspressivlik nuqtayi nazaridan o'rganish matn lingvistikasi, diskurs tahlili, kognitiv tilshunoslik kabi sohalar uchun ham qimmatli ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Tahlil jarayonida ilmiy nutqda faol qo'llanadigan qator frazeologik birliklar mazmuniy guruhlar kesimida o'rganildi. Xususan, ***hodisa va jarayonlarning rivojlanishini*** ifodalovchi frazeologik birliklar qatoriga avj olmoq, vujudga kelmoq, yuz bermoq, yuz tutmoq kabi iboralar kiradi. Ushbu birliklar ilmiy matnda jarayonning paydo bo'lishi, kuchayishi yoki muayyan yo'nalishga qarab rivojlanishini dinamik tarzda ifodalash imkonini beradi.

Faoliyat va amaliy harakatlarni ifodalovchi frazeologik birliklar sifatida baho bermoq, o'rtaga qo'ymoq, rol o'ynamoq, ma'qul ko'rmoq, hisobga olmoq, imkon bermoq kabi iboralar keng qo'llanadi. Bu kabi birliklar ilmiy nutqda tahlil, baholash va qaror qabul qilish jarayonlarini rasmiy hamda aniq uslubda ifodalashga xizmat qiladi.

Intellektual va nutqiy faoliyatni ifodalovchi frazeologik birliklar qatorida fikr yuritmoq, dalolat bermoq, xabar bermoq kabi iboralar alohida o'rin tutadi. Mazkur birliklar ilmiy matnda tahlil jarayoni, mantiqiy xulosa va dalillarga tayanishni ifoda etib, nutqning ilmiy-mantiqiy izchilligini ta'minlaydi.

Umuman olganda, keltirilgan frazeologik birliklar ilmiy nutqda

mazmunni aniq, mantiqiy va uslubiy jihatdan mukammal ifodalashga xizmat qiladi. Ular orqali tadqiqot obyektiga nisbatan munosabat, jarayonlar dinamikasi hamda tahlil natijalari tizimli ravishda bayon etildi. Ilmiy uslubga oid matnlar tahlilida jami **21 ta frazeologik birlik** mazmun va vazifasiga ko'ra uchta asosiy mazmuniy guruhga ajratildi.

"Rasmiy uslub va unda qo'llangan frazeologizmlarning funksional-stilistik vazifalari" deb nomlangan bobning uchinchi bo'limida *administrativ stil* deb ham ataluvchi rasmiy uslubning lingvistik tabiati, uning jamiyatdagi kommunikativ vazifasi hamda ushbu uslubda qo'llanadigan frazeologik birliklarning funksional-stilistik xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan.

O'zbek tilshunosligida rasmiy uslub sohasida olib borilgan tadqiqotlar mazkur uslubning o'zbek tilida alohida shakllanib borganini ko'rsatadi. Uning mustaqil uslub sifatida shakllanganligi lingvistik va ekstralingvistik omillar yaxlitligida yaqqol ko'rinadi.

Rasmiy uslubni boshqa funksional uslublar bilan taqqoslagan S.Karimov mazkur uslubning o'ziga xosliklari sifatida fikrning aniq bo'lishi, maqsadning qisqa va lo'nda bayon etilishi, izohga yo'l qo'yilmaslikni talab etishi, noaniqlikka, ehtimoliy o'rinlarga yo'l qo'yilmasligini, fikr va mazmun sodda, aniq va tushunarli tilda bayon qilinishi kerakligini, matnning ravon, sodda va tushunarli bo'lishi taqozo etishini ta'kidlaydi.

B.Yo'ldoshev rasmiy uslubda *fikrni ma'qullamoq, ish qo'zg'atmoq, zimmasidan soqit qilmoq, zimmasiga yuklamoq, guvohlikka o'tmoq, harakatga keltirmoq, jazo chorasi qo'llamoq* kabi iboralar va terminologik xarakterdagi shtamplar faol qo'llanishini aytib o'tgan. I.Qo'chqortoyev esa *yashasinchilik kayfiyatiga berilmoq, signal bermoq, kun tartibiga qo'ymoq, safdan chiqmoq, hal qiluvchi rol o'ynamoq, murosasozlik ko'zi bilan qaramoq* kabi iboralarni ham rasmiy-idora uslubiga xoslangan, deb hisoblagan.

"Rasmiy uslubga oid matnlar leksikasi va turg'un birikmalari o'zbek tilidagi boshqa funksional uslublarga tegishli matnlar tilidan sezilarli darajada farqlanadi. Shuning uchun ham, ularda boshqa vazifaviy uslublarga xos ayrim unsurlar alohida yoki o'zga turg'un birikmalarda duch kelmaydi: ma'muriy javobgarlik, fuqarolik jamiyati, fuqarolik javobgarligi, aybdor, gumondor, javobgar, sudlovchi, gunoh, jamoat qarilishi, surishtiruv, javobgarlik bilan yarashuv kabi. Mazkur xususiyat qonun hujjatlari tilida yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, qonun normalarida sud hujjatlarining huquqiy kuchi va ularning ijro etilishi majburiy ekani qat'iy, umumlashgan va shaxssiz tarzda ifodalanadi. Bunday bayon shakli rasmiy uslubning asosiy talablaridan biri bo'lgan aniqlik, majburiylik va umumiylikni ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, *"Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiydir hamda*

O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart".

Keltirilgan misolda *kuchga kirmoq* birikmasi rasmiy-huquqiy nutqqa xos bo'lgan turg'un ifoda sifatida qo'llangan. Ushbu birikma huquqiy hujjatning belgilangan tartibda qabul qilinib, amal qila boshlaganini, ya'ni uning yuridik kuchga ega bo'lganini anglatadi. *Kuchga kirmoq* ifodasi rasmiy uslub uchun xos bo'lgan neytral, terminlashgan turg'un birikma hisoblanadi. Bu birikmaning matnda qo'llanishi bayonning aniqligi va huquqiy qat'iyligini ta'minlaydi, chunki aynan *kuchga kirgan* degan ta'kid orqali sud hujjatining barcha subyektlar uchun majburiy ekani asoslanadi.

Bobning to'rtinchi bo'limi *"Badiiy va publitsistik uslubda qo'llangan frazeologizmlarning funksional-stilistik vazifalari"* masalasiga bag'ishlangan bo'lib, ikki kichik bo'limlarga ajratilgan. 2.4.1. bo'lim *"Badiiy uslubda qo'llangan frazeologizmlarning funksional-stilistik vazifalari"* deb nomlangan hamda badiiy uslubda keng qo'llanuvchi frazeologizmlarning uzual va okkazional uslubiy xususiyatlari badiiy asarlardan olingan misollar bilan yoritilgan.

S.Karimovning "O'zbek tilining badiiy uslubi" nomli monografiyasida o'zbek tilining badiiy uslubi atroflicha tahlil qilindi, ayrim qarashlar umumlashtirildi, ularga ilmiy baho berildi. Iboralarning nutqda qo'llanish usullarini dastlab tizimli ravishda o'rgangan I.V.Dubinskiy "frazeologizmlarning nutqda qo'llanish usullarini yanada aniq va tizimli tasnifini ishlab chiqish" zarurligini ta'kidlagan edi. Iboralar badiiy uslubda uzual va okkazional uslubiy vazifalarni bajaradi. Frazeologizmlarning uzual uslubiy xususiyatlari doimiy xarakterga ega bo'lib, poetik matnlarda ham, nasriy matnlarda ham reallashadi. FBlarning uzual uslubiy funksiyalari qatoriga olimlar nominativ funksiya, nutqni ixchamlashtirish funksiyasi, obrazli ifodalash funksiyasi, baholash funksiyasi, emotsional funksiya, ekspressiv funksiya kabilarni kiritadilar.

Badiiy matnda iboralarning ma'lum qismi denotativ asosga ega bo'lib, u yoki bu predmet, voqea-hodisani, xatti-harakatni nomlaydi, so'z-atama sifatida funksiya bajaradi. Iboralarning ayrimlari ma'noni ixchamlashtirish (lakonizatsiyalash) xususiyati bilan ajralib turadi. Masalan, adabiy tilda "vafot etdi, qazo qildi, o'ldi, narigi dunyoga ravona bo'lmoq, olloh rahmatiga oldi ma'nolari ixcham tarzda *ko'z yummoq* iborasi bilan ifodalanadi (O'TIFL, 140): *Lekin chol hali baquvvat, iligi sog'. Bir kun ko'zini yumar axir (Oybek, Qutlug' qon).*

Frazeologizmlarni oddiy leksik birliklardan farqlovchi obrazli ifodalash vazifasi frazeologizmlarning metaforik tabiati va baholovchi komponentlari bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Masalan, badiiy asar qahramon xarakterini tasvirlashda qo'llangan *"ko'ngliga botmoq"*, *"yuragi toza"*, *"qo'li gul"*, *"ko'ziga issiq ko'rinmoq"* kabi frazeologik birliklar nafaqat nutqning obrazlilikini kuchaytiradi, balki personajning ichki kechinmalari hamda

unga nisbatan muallif bahosini ham ixcham shaklda ifodalaydi.

Iboralarning turli struktural tiplari uchun biror predmet yoki voqea-hodisani nomlash bilan birga, ularga salbiy yoki ijobiy baho berish funksiyasi ham xarakterlidir. Tilimizdagi frazeologizmlarning ma'lum qismi biror voqea-hodisani nomlash bilan birga ularga salbiy baho ottenkasini ham beradi: *peshonasi sho'r, pir urgan, Xudoning g'azabi, so'xtasi sovuq, yuragi tosh, qo'li egri* kabi. *Yuragi keng, ko'ngli ochiq, ochiq qo'l, ko'zining oq-u qorasi, qo'li gul, ko'z qorachig'i, qo'li baland, qo'li yuqori, ko'z tegmasin* ("ko'z tegmoq"ning bo'lishsiz shakli) iboralari tarkibida esa ijobiylik bahosi mavjud.

Masalan, frazeologik kontaminatsiya asosida shakllangan *qo'li kosov, sochi supurgi bo'lmoq* iborasi salbiy baho munosabatini ifodalaydi. Ma'lumki, *kosov* hamda *supurgi* uy-ro'zg'or buyumlari sanaladi. Mazkur iboraning shakllanishida o'zbek xalqi turmush voqeligi (uy-ro'zg'or anjomlari) asos vazifasini o'tagan. Kundalik turmushda ishlatiladigan bu buyumlardan, asosan, ayollar mehnat jarayonida foydalanganliklari sababli ibora genderlik xususiyat kasb etgan. Oilada farzandlarining qo'lidan yumush kelishiga qaramay, barcha yumush o'z zimmasida bo'lgan ayollarga nisbatan og'zaki nutqda *qo'li kosov, sochi supurgi bo'ldi* iborasi qo'llaniladi: *Keksaygan chog'ida qo'lini sovuq suvga urmay, huzur-halovatda yashash o'rniga, to'ng'ich o'g'li bilan kelinining ro'zg'orini bo'lak qilib, o'zi hali hamon qo'li kasov, sochi supurgi bo'lib yurganini o'ylab gohida Buvgul ena xit bo'lib ketadi...* (A.Qahhor).

O'zbek tili frazeologik xazinasidagi iboralarning katta guruhi faqat asosiy ma'noni ifodalab qolmasdan, balki so'zlovchining shodligi, g'azabi, nafrati, o'kinchi, qo'rquvi, kinoyasi, jirkanishi singari emotsional munosabatlarni ham ifodalab keladi.

Emotsional vazifa bajaruvchi iboralar orasida *emotiv iboralar* alohida o'rin tutadi, chunki emotsionallik ular mazmunining asosini tashkil qiladi. Masalan, *qo'rqmoq* fe'lining lug'atda 8 ta leksik (*hayiqmoq, hadiksiramoq, seskanmoq, xavotirlanmoq, hurkimoq, xavfsiramoq, cho'chimoq, xavflanmoq*), 34 ta frazeologik sinonimga (*kapalagi uchmoq, yuragi yorilmoq, yuragi orqaga tortmoq, yuragi taka-puka bo'lmoq, yuragi shuvillamoq, yuragi tushmoq, yuragi tovoniga tushmoq, o'takasi yorilmoq, ko'zi kosasidan chiqmoq, tili kalimaga aylanmay qolmoq, oyog'iga qaltiroq turmoq, labiga uchiq chiqmoq, ichi o'tib ketmoq* kabi) ega ekani ko'rsatilgan. Frazeologik sinonimlarning deyarli barchasida leksemaga nisbatan emotsionallik ustun. Ayniqsa, *o'takasi yorilmoq* iborasida bu jihat yaqqol namoyon bo'ladi: *O'takamni yorib yuborayin, dedi! Bovujud, bo'yimda yo'q – bo'yimdan tushirardi-qo'yardi! – Bolada ne ayb, xolasi. Bovasi shunday edi, otasi shunday edi, bolasi-da shunday bo'ladi-da* (T.Murod, *Otamdan qolgan dalalar*). Keltirilgan jumlada *qo'rqmoq* fe'liga yuklangan

semantik-stilistik vazifalardan tashqari *o'takasi yorilmoq* iborasi orqali yozuvchi ichki larza, keskin vahima, qo'rquvning yuqori darajasi, kutilmagan vaziyat ta'sirida yuzaga kelgan ruhiy zarba va subyektning ichki muvozanatining izdan chiqishini obrazli tarzda ifodalaydi.

A.Mamatovning fikricha, ekspressivlik fikrni tez, kuchli, ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladigan ma'nodir. Frazeologizmlarning ekspressiv funksiyasi ularning ta'sirchanlik xususiyati bilan bog'liq.

Ibora tarkibidagi fonetik, leksik va ayrim grammatik o'zgarishlar undagi ekspressivlik darajasining kuchayishiga olib keladi:

a) ibora tarkibidagi fonetik o'zgarish tufayli ekspressivlik darajasining kuchayishi: *lom demaslik – lom-mim demaslik, jonidan o'tmoq – jon-jonidan o'tmoq, joni chiqdi – jon-poni chiqdi, borini bermoq – bor-buduni bermoq* kabi.

b) grammatik o'zgarish tufayli ekspressivlikning kuchayishi: *ko'zi qiymaydi – ko'zlari qiymaydi – ko'zginasi qiymaydi; ko'zining paxtasini chiqarmoq – ko'zlarining paxtasini chiqarmoq* kabi.

v) leksik o'zgarish tufayli ekspressivlikning kuchayishi: *ko'zi ochildi – aql ko'zi ochildi, ko'zi to'rt bo'lib – ikki ko'zi to'rt bo'lib* kabi.

Ko'z olaytirmoq iborasi ko'p ma'noli xarakterga ega bo'lib, quyidagi ikki ma'noni ifodalaydi: 1.O'qraymoq. 2.O'z manfaatiga bo'ysundirish (olish) niyatida bo'lmoq. Og'zaki so'zlashuv uslubida bu iboraning birinchi ifodalagan ma'nosi (o'qraymoq)ning sinonimi sifatida *ko'zini lo'q qilmoq* iborasi ishlatiladi. "Olaytirmoq" fe'li o'rnini egallagan *lo'q qilmoq* birikmasida ekspressivlik kuchliligi sabali yozuvchilar asarlarida *ko'zini lo'q qilmoq* iborasidan turli uslubiy maqsadlarda foydalanishadi. Masalan, yozuvchi A.Yo'ldoshev bu iborani *o'qrayib qaramoq* ma'nosida qo'llaydi: *O'n olti o'n yetti yoshlar chamasidagi chiptachi o'ziga ko'zini lo'q qilib qarab turardi* (A.Yo'ldoshev. *Biz o'tgan yo'llar*).

Frazeolog olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlarning okkazional funksiyalari ularning uzual qo'llanishidan farqli o'laroq faqat muayyan matnlardagina ro'yobga chiqadi. Iboralar, asosan, quyidagi okkazional uslubiy funksiyalarni bajarish uchun xizmat qiladi: *sarlavha bo'lish funksiyasi, qofiya hosil qilish funksiyasi, refren hosil qilish funksiyasi, gradatsiya hosil qilish funksiyasi, okkazional transformatsiyaga uchratish* kabi.

Frazeologik birliklar tarkibini qisqartirish usuli badiiy nutqda keng qo'llaniladigan stilistik vositalardan biri hisoblanadi. Mazkur hodisada nutqiy vaziyat yoki poetik talab (masalan, vazn, ritm, qofiya) asosida ibora tarkibidagi ayrim komponentlar tushirib qoldiriladi, biroq frazeologik birlikning semantik yaxlitligi saqlanib qoladi. Bunda iboraning qisqartirilgan shakli til egalari ongida uning to'liq variantini assotsiativ tarzda tiklaydi, ya'ni tushirilgan komponentlar ma'no jihatdan implisit holda mavjud bo'ladi.

Masalan, H.Xudoyberdiyevaning “Otam mening” she’rida qo’llangan “Faqat... boshga yog’gan do’l-u yomg’irlardan / Cho’kkan saroy – erta ketgan otam mening...” misralarida xalq tilida keng qo’llaniladigan “har kim o’z boshiga yog’gan qorni o’zi kuraydi” frazeologik birligi to’liq shaklda emas, balki qisqartirilgan va transformatsiyaga uchragan holda qo’llangan. She’rda iboraning “har kim o’zi kuraydi” qismi tushirib qoldirilib, “boshga yog’gan” qismi saqlangan hamda “qor” leksemasi poetik kontekstga mos ravishda “do’l-u yomg’ir” bilan almashtirilgan. Ibora struktur jihatdan qisqartirilgan bo’lsa-da, uning umumiy ma’nosi (inson boshiga tushgan sinov va dardni o’zi boshdan kechirishi) kitobxon ongida to’liq tiklanadi, bu esa frazeologik birlikning badiiy matnda muallifning estetik niyatini ifodalashga xizmat qiluvchi muhim stilistik-pragmatik vosita ekanini dalillaydi hamda mazkur qo’llanishni leksik almashtirish asosidagi okkazonal (individual-mualliflik) lingvopoetik transformatsiya sifatida baholash imkonini beradi.

2.4.2.-bo’lim *“Publitsistik uslubda qo’llangan frazeologizmlarning funksional-stilistik vazifalari”* tavsifiga bag’ishlangan.

Tadqiqotlarda publitsistik matndagi frazeologizmlar, odatda, bir nechta yo’nalishda o’rganiladi: ularning semantik-stilistik imkoniyatlari, baholovchi vazifasi, emotsional-ekspressiv kuchi, transformatsiyaga uchrashi va okkazonal qo’llanish holatlari shular jumlasidandir. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalarida frazeologik birliklarning ma’no kengayishi yoki kinoyaviy xarakter kasb etishi kabi hodisalar ilmiy qiziqish uyg’otadi. Shuningdek, publitsistik matnda frazeologizmlarning sarlavha, leytmotiv, gradatsiya yoki ritorik ta’sir vositasi sifatidagi ishtiroki ham alohida tahlil qilinadi. Bunda ularning kommunikatsion vazifasi, adresatga yo’naltirilganligi va pragmatik maqsadi asosiy mezon sifatida olinadi. Demak, publitsistik uslubda frazeologizmlarning qo’llanishini o’rganish nafaqat uslubshunoslik, balki kognitiv va pragmalingvistik yondashuvlar nuqtayi nazaridan ham dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

Kommunikativ maqsad va til xususiyatlariga qarab ular informativ, tahliliy (analitik) hamda badiiy-publitsistik janrlarga ajratiladi.

Axborot (informatsion) janrlarida (xabar, hisobot, yangilik, reportaj, intervyu) asosiy e’tibor voqeani xolis yetkazishga qaratiladi. Bunday matnlarda frazeologizmlar til me’yoriga mos holda qo’llanadi. Ya’ni ular axborotni ortiqcha “bo’rttirmaslik” maqsadida tanlanadi. Ayrim hollarda esa sarlavhada yoki yakuniy jumlada ixcham frazeologik birlik qo’llanib, xabar mazmuniga ramziy tus berilishi mumkin. Masalan, ***“Og’a qaqir-qaqirlar”ga aytar gapim: momongizning moykaltagini yebsiz!***” sarlavhasi ostida chiqqan maqolada xalq nutqiga xos ***momongizning moykaltagini yebsiz*** frazeologik birligi kimningdir ne’matidan bahramand bo’lgan holda uning qadriga yetmaslik yoki noo’rin da’vo qilish holatini tanqidiy ruhda ifodalash

uchun qo'llangan ("Zarafshon", 10.03.2026). Sarlavhada bunday xalqona, obrazli va keskin frazeologik birlikning qo'llanishi o'quvchi diqqatini jalb qilishga xizmat qiladi. Bu esa publitsistik matnning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan auditoriyani fikrlashga undash va muayyan ijtimoiy muammoga e'tibor qaratishni ta'minlaydi.

Maqola, taqriz, sharh, kuzatish, suhbat kabi tahliliy (analitik) janrlarda boshqa janrlardan farqli ravishda muallif nuqtayi nazari ochiq ifodalanadi, fikrlar dalil va mulohaza bilan asoslanadi. Bu turdagi matnlarda frazeologizmlar ko'proq baholovchi va ta'sirchan vosita sifatida namoyon bo'ladi: muayyan ijtimoiy holatni "ko'zbo'yamachilik", "ikki o't orasida qolmoq", "o'rgangan ko'ngil...", "tanganing orqa tarafiga qaramoq", "kaltak tegmoq", "qalovini topib, qorni yondirmoq", "qo'lining kiri" kabi birikmalar orqali obrazli talqin qilish mumkin. Masalan, *Keyin esa o'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas, deganlaridek qo'yning bir sonini o'marib ketishi ham hech gap emas. Lekin masalaning boshqa tomoniga, iborali aytganda, tanganing orqa tarafiga ham qaraylik* ("Yoshlar ovozi", 10(1872, 2025-yil). "Yoshlar ovozi" gazetasidan olingan mazkur parchada keltirilgan frazeologik birliklar maqola muallifi fikrini obrazli va ta'sirchan tarzda ifodalashga xizmat qilgan. Xususan, "o'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas" hamda "tanganing orqa tarafiga ham qaramoq" kabi iboralar orqali voqelikka baholovchi va tanqidiy munosabat bildirilgan. *O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas* iborasi insonning biror odat yoki manfaatga ko'nikib qolgan holatini, uni osonlikcha tark eta olmasligini ifodalab, muayyan ijtimoiy holatga nisbatan muallifning kinoyaviy munosabatini kuchaytirs, *tanganing orqa tarafiga ham qaramoq* iborasi esa masalaga bir tomonlama emas, balki uning boshqa, yashirin jihatlarini ham hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Matnda qo'llangan iboralar matnda nafaqat obrazlilikni ta'minlaydi, balki fikrni jonlantiradi, muallif munosabatini yashirmay, ochiq ko'rsatish imkonini beradi.

Badiiy-publitsistik janrlarda (lavha, ocherk, felyeton) esa frazeologik birliklar matnning tabiiy qismiga aylanadi. Ular voqelikni "jon kirgandek" tasvirlash, ijtimoiy illatlarni fosh etish yoki muayyan shaxsning ruhiy holatini yorqin ko'rsatishda faol ishtirok etadi. Ayniqsa, felyeton va pamfletda frazeologizmlar ironiya va satirani kuchaytirish, "po'stini yirtish" yoki "niqobini ochish" vazifasini bajaradi. Masalan, *Begonalarni do'st qilmoq qasdida "mehr uyin eshigin" la-ang ochib qo'ygan g'aroyib kunlarining birida Azamat Gaybnazarov degan fuqarodan da'vo-ariza tushdi. Da'vo bilan tanishgach, qahramonimizning ko'zlariga chirt yosh kelgan bo'lsa, ne ajab?! Sho'rlik da'vogar sud ostonasiga bosh urib kelguncha ichki ishlar idoralarida ozmuncha sarg'aymagan ekan. Yozg'irishicha, I.Xaitov va D.Smirov degan fuqarolar undan juda katta miqdorda qarz olib, pulni qaytarmay qulog'iga lag'mon osib yurishganmish. Bechora ularning "firibgar" ekanini isbotlayman, deb ona suti og'ziga*

kelibdi. Biroq vajlari tasdiqlansa, qani?! (xabar.uz). “Rost bo’lamiz, qozijon! Do’st bo’lamiz, qozijon!..” nomli felyetondan keltirilgan parchada “*sud ostonasiga bosh urib*”, “*mehr uyin eshigin*” *la-ang ochib qo’yg’an*”, “*qulog’iga lag’mon osib*”, “*ona suti og’ziga kelibdi*” frazeologik birliklar matnning badiiy-publitsistik xarakterini kuchaytirib, voqelikni obrazli hamda satirik ohangda tasvirlashga xizmat qilgan. Xususan, “*sud ostonasiga bosh urib*” iborasi da’vogar shaxsning adolat izlab ko’p joylarga murojaat qilgani, turli idoralar eshigini qoqib, sarson-sargardon bo’lganini ifodalaydi. Bu ibora orqali qahramonning ruhiy holati, uning chorasizligi va adolat izlab yurgan holati ta’sirchan tarzda tasvirlanadi. “*Qulog’iga lag’mon osib*” iborasi esa qarzdor shaxslarning aldov va firibgarlikka asoslangan harakatini ironiyali tarzda ochib beradi. “*Ona suti og’ziga kelibdi*” iborasi qahramonning juda katta qiyinchilik va azob-uqubatlarga duch kelganini mubolag’a vositasida ifodalaydi. Bu kabi iboralar felyeton janri uchun xos bo’lgan ekspressivlik, ironiya va satirani kuchaytiradi.

Ikkinchi bobning so’nggi bo’limi “*Diniy uslub va unda frazeologizmlarning qo’llanish xususiyatlari*” deb nomlanib, unda diniy uslubning lingvistik tabiati, ushbu uslubda frazeologik birliklarning tutgan o’rni hamda ularning semantik-stilistik va pragmatik xususiyatlari atroflicha tahlil qilingan. Mazkur bo’limda diniy uslub mustaqil funksional uslub sifatida qaralib, uning shakllanishi va rivojlanishida frazeologizmlarning ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan.

O’zbek frazeologik fondining ma’lum qismini diniy tushunchalar bilan bog’liq elementlar tashkil etadi. O’tkazilgan tahlillar diniy uslubga mansub frazeologizmlarning zamonaviy o’zbek tilidagi funksional imkoniyatlari nihoyatda keng va ko’p qatlamli ekanini ko’rsatdi. Avvalo, bunday frazeologizmlar tarkibidagi shayton, gunoh, tavba, duo, qismat, nasiba, savob kabi diniy leksemalar ularning asosiy axloqiy-semantik yadrosini shakllantiradi. Diniy manba va rivoyatlardan kelib chiqqan mazkur birikmalar kommunikativ jarayonda **baholovchi, ekspressiv, emotsional, axloqiy-nasihat** kabi vazifalarni bajarib, nutqning ma’no va uslubiy zaminini boyitadi.

Tilda keng qo’llanuvchi diniy frazeologik birliklarni quyidagicha mazmuniy guruhlarga bo’lib o’rganish mumkin:

1. Qur’on va hadis asosida shakllangan frazeologizmlar: *Alloh yorlaqasin / Olloh panoh bersin, Allohning irodasi bilan, taqdiriga tan berish, savobga qolmoq / gunohga botmoq.*

2. Diniy-mifologik obrazlar asosidagi frazeologizmlar: *shaytonga hay bermoq, shaytonning vasvasasiga uchmoq, shayton urdi, iblisning yo’liga kirdi, jin urmoq / jin chalmoq.*

3. Tasavvufiy manbalar bilan bog’liq birliklar: *haq dastida bo’lmoq, fano bo’lmoq, haq yo’liga kirmoq, qo’l bermoq* va b.

4. Diniy marosim va udumlar bilan bog'liq frazeologizmlar: *nomiga xutba o'qitmoq, qo'lini halollamoq, oxirat oshi* va b.

5. Diniy-axloqiy qadriyatlar asosidagi frazeologizmlar: *oxiratini kuydirmoq, xudo biladi, peshonasida yozilgan, xudo yozgan, birovning haqiga qaramoq, savobga qolmoq* kabi.

6. Xalq og'zaki ijodida diniy qatlamga ega bo'lgan frazeologizmlar: *qismat ekan, gunohi boshidan oshmoq* kabi.

Frazemalarning rasmiy, ilmiy, diniy va og'zaki nutqda qo'llanishi o'zbek tilining semantik va stilistik salohiyatini yanada kengaytirib, nutq madaniyati rivojiga xizmat qilayotgani kuzatildi. Ayniqsa, diniy diskursda frazeologik birliklar an'anaviy qadriyatlar hamda ma'naviy me'yorlarni ifodalovchi barqaror til vositalari sifatida shakllangan.

Uchinchi "*O'zbek tilida frazemalarning lingvomadaniy tadqiqi masalasi*" deb nomlangan bobda o'zbek tilidagi frazemalarning **milliy-madaniy mazmuni**, ularning xalq tafakkuri, urf-odatlar, an'analar hamda tarixiy tajriba bilan bog'liqligi lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilingan. Mazkur bobda frazeologik birliklarning **madaniy kodlar, milliy stereotiplar va qadriyatlarni aks ettirishdagi o'rne** ochib berilib, ularning semantik tarkibida mujassam bo'lgan etnomadaniy komponentlar tavsiflangan. Bob besh bo'limdan iborat.

Birinchi bo'lim "*Frazeologizmlarda milliy qadriyatlar va mentalitet ifodasi*" deb nomlanib, unda o'zbek tilidagi frazeologik birliklarda xalqning milliy xarakteri, dunyoqarashi, axloqiy-me'yoriy qarashlari hamda mental xususiyatlarining ifodalanish usullari tahlil qilingan. Frazeologizmlarning semantik tuzilishida aks etgan **milliy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar va madaniy stereotiplar** lingvomadaniy jihatdan tavsiflangan.

Tilning frazeologik boyligi lingvokulturologiyaning muhim tadqiqot obyektiga aylanishi bejiz emas. Frazeologizm an'anaviy ravishda tilshunoslik tadqiqotining obyekti sifatida talqin etilgan bo'lsa-da, uni **lingvomadaniy aspektda o'rganish** uning belgi sifatidagi murakkab tabiatini, ya'ni semantik, kognitiv va madaniy qatlamlarining o'zaro uyg'unlashganligini ochib berishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv frazeologiyani nafaqat til tizimidagi o'rnini, balki **olamni lisoniy konseptuallashtirish jarayonidagi** faol ishtirokini, shuningdek, **madaniyat konseptosferasining shakllanishi va rivojlanishiga qo'shadigan hissasini** aniqlash imkonini beradi.

Uchinchi bobning ikkinchi bo'limi "*Frazeologizm, konsept va lingvokulturema*" deya nomlanib, unda frazeologik birliklarning **konseptual mazmunni shakllantirishdagi o'rne**, ularning lingvokulturema sifatida namoyon bo'lish xususiyatlari hamda milliy-madaniy axborotni uzatishdagi funksional imkoniyatlari yoritilgan. Bo'limda frazeologizmlarning semantik tuzilishi orqali **milliy konseptlarning** ifodalanishi lingvomadaniy yondashuv

asosida tahlil qilingan.

Lingvokulturologiyaning markaziy tadqiq obyekti sifatida talqin qilinadigan *lingvokulturema* til va madaniyat o'rtasidagi uzviy hamda ko'p darajali integratsiyani aks ettiruvchi murakkab semiotik-kognitiv birlik hisoblanadi. Til tizimidagi har bir lingvokulturema muayyan **konsept**ning mazmuniy yadrosini o'zida jamlagan bo'lib, bu yaxlitlik orqali madaniy tajriba, tarixiy xotira, ong mahsuli bo'lgan baholovchi va tavsiflovchi xususiyatlar aktual holatga keladi. Shuning uchun ham *lingvokulturema*, **konsept** va **frazeologik birlik**larning o'zaro munosabatini tadqiq etish lingvokulturologiyaning metodologik asosini tashkil etadi.

Kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika va lingvokulturologiya doirasida qo'llaniladigan *lingvistik stereotip* tushunchasi ham mazkur birliklarning mazmuniy tarkibini belgilab beradi. Lingvistik stereotip – xalq tafakkurida shakllangan, soddalashtirilgan, ammo yuqori darajada tanilgan kognitiv model bo'lib, u til birliklariga yuklangan an'anaviy tasavvur va baholash mezonlarini ifodalaydi. Stereotiplashgan tasavvurlar frazeologik obrazning barqarorligini ta'minlab, uning baholovchi yo'nalishini aniqlaydi hamda nutq jarayonida tez va to'liq idrok etilishiga xizmat qiladi. Masalan, o'zbek tilidagi **boshida ko'tarib yurmoq** frazeologik birligida bosh komponenti hurmat, e'zoz va ustuvorlik bilan bog'liq bo'lgan madaniy-somatik stereotipni aks ettiradi. Ushbu iborada shaxsni boshdan yuqoriga ko'tarish harakati jamiyat ongida yuksak qadrlash va alohida e'tibor ko'rsatish modeli sifatida mustahkamlangan bo'lib, frazeologik birlik ijobiy aksiologik bahoni ifodalaydi.

Frazeologik birliklarning lingvokulturologik tabiatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har bir frazeologizm konseptual mazmunning konkret obrazli ifodasini beradi. Masalan, "boshini ko'tarib yurmoq¹", "insofga keltirmoq", "peshona teri" birliklari xalq ongidagi *halollik* konseptining kodlangan ko'rinishlari hisoblanadi. "Ko'ngli keng", "qo'li ochiq", "bag'ri ochiq" frazeologizmlari *saxiylik* konseptini ifodalaydi. "Ko'zi ochilmoq", "dunyoning achchiq-chuchugini totgan", "ko'pni ko'rgan", "ish ko'rgan" birliklari *tajriba* konseptiga borib taqaladi. "Bo'yniga olmoq", "yelkaga olmoq", "zimmasiga tushmoq" frazeologizmlari *mas'uliyat* konseptining milliy-madaniy talqinini aks ettiradi. "Ko'zi to'q", "boriga baraka", "och qornim tinch qulog'im" birliklari esa *qanoatlilik* konseptining lingvokulturemik ko'rinishlari sanaladi.

Lingvokulturologiyada har bir madaniy kod frazeologik tizimda xalqning o'ziga xos mental xaritasi, qadriyatlar iyerarxiyasi va dunyoni ramziy idrok etish usulini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi:

Narsa-buyum madaniy kodi – moddiy madaniyat unsurlari (uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak, qurol-aslahalar, asboblari va h.k.) asosida shakllanadigan madaniy kod bo'lib, xalqning turmush tarzi va ijtimoiy

tajribasini aks ettiradi. Masalan, *do'ppisi yarimta, soyasiga ko'rpacha solmoq, oyog'iga bolta urmoq, nog'orasiga o'ynamoq, kosasi oqarmadi, atlas ko'ylakka bo'z yamoq, to'nini teskari kiymoq* kabi.

Biomorf madaniy kodi – inson, hayvonot va o'simlik olami obrazlari orqali shakllangan, tabiat bilan bog'liq tasavvurlarni ifodalovchi kod. Masalan, *qo'yday yuvosh, ilonning yog'ini yalagan, ildiziga bolta urmoq, ajriqqa ag'anagandek, qamishdan bel bog'lamoq, ildiz otmoq, ildizi qurimoq, chayon chaqib olganday, ot bilan tuyacha, xo'roz qichqirmasdan, it azobida* kabi.

Makon madaniy kodi – joy, makon, hudud, masofa bilan bog'liq tasavvurlar asosida shakllangan madaniy kod bo'lib, ijtimoiy va axloqiy baholashni ifodalaydi. Masalan, *onasini Uchqo'rg'ondan ko'rmoq, Amerika ochmoq, Makkadan hoji kelganday, Asakasi ketarmidi, beva xotinga Buxorodan it hurar, boshi osmonga yetmoq, yer bilan bitta bo'lmoq, oyoq osti qilmoq* kabi.

Ma'naviy madaniy kod – axloq, e'tiqod, qadriyat, iymon, vijdon, gunoh-savob kabi tushunchalar asosida shakllangan kod bo'lib, jamiyatning ma'naviy mezonlarini aks ettiradi. Masalan, *vijdoni uyg'oq, shaytonga dars bermoq, yuzi yorug' bo'lmoq* kabi.

Somatik madaniy kod – inson tana a'zolari orqali ifodalanadigan madaniy kod bo'lib, baholash va emotsional munosabatni kuchaytiradi. Masalan, *ko'zi to'rt bo'lmoq, yuragi tosh, boshini aylantirmoq, qo'li egri* kabi.

Vaqt madaniy kodi – vaqt, davr, muddat, tezlik va kechikish bilan bog'liq tasavvurlar asosida shakllangan madaniy kod. Masalan, *yetti uxlab tushiga kirmaslik, vaqti-soati yetmoq, "ha-hu" deguncha, besh kunlik dunyo, tuyaning dumi yerga tekkanda, tuya go'shti yegan, chayon chaqib olganday, yashin tezligida* kabi.

Tilda frazeologizmlarni lingvokulturema sifatida talqin qilish ularning ko'p qatlamli mohiyatini ochib beradi: bir tomondan, ular tayyor til birliklari sifatida kommunikativ ehtiyojni qondirsa, ikkinchi tomondan, xalqning tarixiy xotirasi va mental modelini nutqda qayta ishlaydi. Demak, frazeologizmlar til va madaniyatning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelgan murakkab birliklar bo'lib, ularni o'rganish milliy tafakkur, madaniy kodlar va konseptual tizimni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Bobning navbatdagi bo'limi *"O'zbek xalq dunyoqarashining frazeologik ifodasi: kognitiv-madaniy yondashuv"* deb nomlangan. Tilshunoslikda frazeologik birliklar tayyor semantik qurilmalar sifatida emas, balki inson ongida shakllangan konseptual tuzilmalar va madaniy tajribaning til orqali ifodalangan modeli sifatida talqin qilinadi. Kognitiv yondashuv nuqtayi nazaridan bunday birliklar borliqni bevosita nomlash bilan cheklanmay, uni milliy tafakkur asosida qayta idrok etish va baholash jarayonini aks ettiradigan mental modellar sifatida qaraladi. Shu ma'noda frazeologizmlar

xalq tafakkurida mavjud bo'lgan bilimlar tizimini, stereotip tasavvurlarni va konseptual sxemalarni verballashtiruvchi vosita vazifasini bajaradi.

Frazeologik ma'no shakllanishida konseptual metafora va metonimiya muhim kognitiv mexanizm hisoblanadi. Xususan, o'zbek frazeologiyasida "hayot – yo'l", "sabr – idish", "qalb – makon", "taqdir – yozuv" kabi asosiy metaforik modellar faol qo'llanadi. *Sabr kosasi to'ldi, to'g'ri yo'lda yurmoq, ko'ngli keng, peshonaga yozilgan* singari FBlar mazkur metaforik sxemalarning barqaror lingvistik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Frazeologik birliklarning konseptual tuzilmasini ochishda freym va skript modellari ham muhim o'rin tutadi. Freym muayyan vaziyatga oid bilimlar majmuasini, skript esa hodisalarning izchil ketma-ketligini aks ettiruvchi kognitiv sxema sifatida talqin qilinadi. Masalan, *bel bog'lamoq, qo'li qo'lga tegmay, qo'lini uzmoq* kabi iboralar mehnat jarayonining boshlanishi, faol davom etishi va yakunlanishini bosqichma-bosqich ifodalovchi skriptni hosil qiladi. Bu holat frazeologizmlarning milliy ongda jarayonlarni butun bir konseptual model sifatida aks ettirishini ko'rsatadi.

"Kiyim-kechak motivli frazeologizmlarning lingvomadaniy tahlili" deb nomlangan bobning to'rtinchi bo'limida o'zbek tilidagi kiyim-kechak bilan bog'liq frazeologizmlarning **milliy-madaniy mazmuni**, ularning xalq turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy qarashlar va estetik tasavvurlarni aks ettirishdagi o'rni tahlil qilingan. Mazkur bo'limda kiyim-kechak komponentli frazemalarning **ramziy va konseptual ma'nolari**, shuningdek, ular orqali ifodalangan **milliy qadriyatlar va madaniy kodlar** lingvomadaniy jihatdan tavsiflanadi.

Qadimdan o'zbek madaniyatida *do'ppi, ko'ylak, to'n, etik* – shaxsning holati haqida "tilsiz belgilar" sifatida ishlatilgan. Chunki, "til bizning hayot tarzimizni tavsiflovchi ijtimoiy malaka va g'oyalar majmui sifatida madaniyatdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi". Ibora tarkibidagi asosiy komponent sanalgan kiyimning holati (yirtilgan, teskari, yarimta, tor) ruhiy yoki ijtimoiy holatga ko'chadi. Ijtimoiy hayot va kundalik turmush tajribasi asosida shakllangan bunday frazeologizmlarda xalqning kiyim-kechakka oid amaliy tajribasi nutqqa ko'chgan bo'lib, **predmetga xos belgilar ko'chma, ramziy ma'nolar orqali ijtimoiy va ruhiy holatlarni ifodalash vositasiga aylangan**. Masalan, atlas ko'ylakka bo'z yamoq frazeologizmida **yamoq** komponenti kamchilik va nomuvofiqlikni bildirsa, to'nini teskari kiyimoq iborasida **teskari kiyish** e'tiroz va norozilik semasini ifodalaydi; do'ppisi tor kelmoq birligida **tor kelish** imkonsizlik va muammo ma'nosini anglatadi, do'ppisini osmonga otmoq frazeologizmida esa **osmonga otish** orqali quvonch va ruhiy ko'tarinkilik holati obrazli tarzda ifodalanadi.

O'zbek milliy madaniyatida erkaklar bosh kiyimi "do'ppi" bilan bog'liq bir qancha frazeologizmlar shakllangan: *"do'ppisi yarimta", "do'ppisini*

osmonga otmoq”, *“do’ppisini yerga olib qo’yib*”, *“do’ppining tagida odam bor”* kabi.

Kiyim-kechak leksikasi asosida shakllangan frazeologizmlar o’zbek xalqining maishiy, estetik, axloqiy va emotsional dunyoqarashini aks ettiradi. Ular madaniy kod sifatida shaxsning ijtimoiy mavqeini, ruhiy holatini, jamoa bilan munosabatini, quvonch va tashvishlarini turli badiiy tasvirlar orqali ifodalab keladi. Mazkur frazeologik birliklarning tahlili o’zbek tilidagi ramziy fikrlashning, metaforik tafakkurning boy va qadimiy an’analariga dalildir.

Uchinchi bobning so’nggi bo’limi ***“Diniy motivli frazeologizmlarning lingvomadaniy tahlili”*** deb nomlanib, unda o’zbek tilidagi diniy mazmunga ega frazeologik birliklarning **milliy-ma’naviy qadriyatlar**, e’tiqod, axloqiy me’yorlar hamda diniy dunyoqarash bilan uzviy bog’liqligi lingvomadaniy yondashuv asosida yoritilgan. Bo’limda diniy motivli frazeologizmlarning semantik tuzilishida mujassam bo’lgan **diniy konseptlar**, ramziy ma’nolar va madaniy kodlar tahlil qilinib, ularning til va madaniyat o’rtasidagi munosabatni aks ettirishdagi o’rni asoslab berilgan.

Masalan, xalqimiz orasida *“shayton yo’ldan urdi”* fe’l frazemasi yomon ish yoki xato holat sodir etilganda o’zini oqlash uchun ishlatiladi. *“Shayton”* leksemasining arab tilidan o’zlashgani mazkur obrazning islom diniy-madaniy an’anasi bilan bevosita bog’liqligini ko’rsatadi. Islom dini yurtimiz hududida keng tarqalganligi bois bu birlik xalq tafakkuri va til ongida mustahkam o’rin egallagan.

Shayton yo’ldan urdi frazemasi lingvomadaniy jihatdan muhim bo’lish bilan birga, psixolingvistik nuqtayi nazardan ham diqqatga sazovordir. Unda insonning muayyan xatti-harakati shaxsiy irodadan ko’ra tashqi yovuz kuch – shayton vasvasasi bilan izohlanadi. Natijada aybning subyekt zimmasidan qisman olinib, metafizik kuchga ko’chirilishi orqali ruhiy yengillik hosil qilinadi. Bu hodisa ko’plab madaniyatlarda uchraydigan *“aybni g’ayritabiiy kuchga yuklash”* strategiyasining milliy-madaniy ifodasi sifatida namoyon bo’ladi.

Umuman olganda, diniy motivga ega frazeologizmlarining funksional xoslanishi o’zbek tili frazeologik tizimidagi diniy va so’zlashuv nutq qatlamlarning o’zaro integratsiyalashuvini ko’rsatadi. Bu esa diniy timsollar asosida shakllangan frazeologizmlarning nafaqat tilning boyligi, balki jamiyatning ma’naviy-estetik tajribasi, axloqiy qadriyatlari va mental dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy hodisa ekanini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning ***“O’zbek leksikografiyasidagi frazemalar va til korpuslarida frazeologizmlarning berilishi”*** deb nomlanuvchi to’rtinchi bobining dastlabki bo’limi *“O’zbek leksikografik lug’atlarida frazeologizmlarning berilishi”* tarzida bayon qilingan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qator leksikografik ishlar yuzaga keldiki, ular lugʻatlarga frazemalarni kiritish va izohlash tamoyillarini belgilashda, frazeografiyaning bundan keyingi taraqqiyotida muhim rol oʻynadi hamda oʻzbek frazeologiyasi va frazeografiyasining mustaqil lingvistik sohalar sifatida shakllanishi va taraqqiyoti uchun oʻziga xos zamin hozirladi. XX asrning 60-yillaridan boshlab oʻzbek tilshunosligida ham amaliy ehtiyojlar taʼsirida frazeologik lugʻat tuzishning ilmiy-nazariy muammolarini tadqiq etishga eʼtibor qaratila boshlandi.

M.Umarxoʻjayev jahon tilshunosligida frazeografiya fanining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tarixiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan uch asosiy bosqichga ajratib tadqiq etadi. Birinchi bosqich eng qadimgi davrlardan XIX asrgacha boʻlgan vaqt oraligʻini qamrab oladi. Ikkinchi bosqich XIX asr hamda XX asrning birinchi yarmiga toʻgʻri kelib, frazeografik qarashlarning ilmiy tizimlashuvi bilan xarakterlanadi. Uchinchi bosqich esa XX asrning 50-yillaridan boshlab hozirgi davrgacha boʻlgan muddatni oʻz ichiga olib, frazeografiyaning mustaqil ilmiy yoʻnalish sifatida jadal taraqqiy etishi bilan tavsiflanadi.

Oʻzbek tili frazeologizmlarining izohli lugʻati oʻzbek tilining tushunchalarni taʼsirchan aks ettirish imkoniyati, olam manzarasini tafakkur va idrok orqali anglash hamda barqaror birikmalar, frazeologizmlarning mental maʼlumotlarni toʻplash va ifodalash xususiyatlarini namoyon etadi. Shavkat Rahmatullayevning 1978-yilda yaratgan “Oʻzbek tilining izohli frazeologik lugʻati” va 1992-yilda qayta ishlangan “Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati” yillar davomida tilshunosligimizda asosiy frazeografik manba sifatida xizmat qilib keldi va hanuzgacha oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Mazkur lugʻatlarda 3 mingdan ortiq frazeologik birliklarning maʼnosi, shakliy tuzilishi va maʼno munosabatlariga oid turli qirralari badiiy asarlardan olingan ishonchli misollar asosida izohlangan.

2022-yilda H.Dadaboyev masʼul muharrirligida bir guruh olimlar tomonidan mazkur lugʻatning yangi nashri tayyorlanib, chop etildi. Lugʻatda jami 5198 ta frazeologik birlikning izohi keltirilgan. Ushbu “Oʻzbek tili frazeologizmlarining izohli lugʻati” adabiy tilda, xalq shevalarida hamda mumtoz tarixiy manbalarda uchraydigan iboralar tizimini qamrab olgan. Lugʻat Sh.Rahmatullayev tomonidan tuzilgan “Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati” (1992) asosida qayta ishlangan boʻlib, mazkur manbada 3000 dan ortiq frazeologik birlik izohlangan edi. Yangilanish jarayonida davr mafkurasi bilan bogʻliq, zamon nuqtayi nazaridan eskirgan leksik birliklar chiqarib tashlandi, lugʻat maqolalari esa mustaqillikdan keyin yaratilgan badiiy asarlardan olingan misollar bilan boyitildi. Asosiy korpusga qoʻshimcha ravishda 397 ta arxaik ibora, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” (2006-2008), “Oʻzbek frazeologiyasidan materiallar” (H. Berdiyarov, R.

Rasulov, B. Yo'ldoshev; 1976-1983) hamda xalq shevalari asosida to'plangan 1801 ta frazeologik birikma izohi kiritilgan.

2014-yilda N.Mahmudov va Y.Odilovlar tomonidan nashr etilgan lug'atda o'zbek tilidagi 300 dan ortiq so'z va iboralarning enantioseмик ma'nolari aniq misollar asosida tavsiflangan. Ushbu lug'at zamonaviy o'zbek leksikografiyasida enantioseмикiya hodisasini tizimli yoritishga bag'ishlangan ilk tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Lug'atda izohlangan har bir so'z yoki iboradan so'ng unga xos enantioseмикianing turi ko'rsatilgan bo'lib, ular lisoniy, nutqiy, nominativ, subyektiv-baholovchi va boshqa turlarga ajratilgan. Masalan, ***bino qo'ymoq*** iborasi lisoniy enantioseмикiya namunasidir:

1. O'ziga ortiqcha baho bermoq, kibrlanmoq. *Bu nodon bandaning ojiz o'yiga kelgan fikrni qarang o'ziga bino qo'ygan Kesakpolvon beo'xshov bir maxluq sifatida ko'ruvchi shu odamchaning iltimosini inobatga olarkanmi? (Tohir Malik. «Shaytanat»).*


2. Boshqaga (odam, narsa va sh.k.) ayriча baho bermoq, alohida mehr bilan munosabatda bo'lmoq berilmoq. *Madaniyat va istirohat bog'iga kirdik. Mehmon, hech bo'lmasa, shu boqqa, xususan, gulu gulzorga qiziqar deb o'yladim, chunki shahrimiz bu boqqa juda bino qo'ygan (A.Qahhor, Dumli odamlar) [O'TESIL, 152].*

Bobning ikkinchi bo'limi "*Til korpuslari va ularda frazeologizmlar bazasini yaratish masalalari*" tavsifiga bag'ishlangan bo'lib, unda zamonaviy lingvistikaning muhim yo'nalishlaridan biri – korpus lingvistikasi doirasida frazeologik birliklarni tizimli ravishda jamlash, tavsiflash va elektron shaklda modellashtirish masalalari yoritilgan.

Til korpusi deganda muayyan tilga oid turli janr, uslub, davr va hududlarni o'z ichiga olgan, elektron shaklda saqlangan, belgilangan (annotatsiya qilingan) va qidiruv tizimi bilan ta'minlangan matnlar majmui tushuniladi. Bunday resurslar til birliklarining qo'llanish chastotasi, kontekstual muhiti, leksik-semantik variantlari, uslubiy rang-barangligi hamda grammatik xususiyatlarini leksikografik, statistik va tizimli asosda o'rganish imkonini yaratadi. Til korpusida iboralar bazasini yaratish iboralar bilan bog'liq muayyan tadqiqotni olib borishda, masalan, somatik iboralar yoki mualliflik iboralari bo'yicha tadqiqot ishida barcha somatik yoxud mualliflik iboralarini bir necha soniyada korpusdan manbasining ma'lumoti (metama'lumot) va konteksti (konkordans)i bilan olish imkonini beradi. Bunda vaqt teжалadi va e'tibordan chetda qolgan iboralar ham yuzaga chiqadi.


Fikrimizning dalili sifatida o'zbek tili ta'limiy korpusidan (<http://uzschoolcorpara.uz/>) bir amaliy mashg'ulot bajaramiz. O'quvchi yoki talabalarga somatik iboralarni jamlash vazifasi berilgan bo'lsin. Mana shu jarayonda ham korpus benazir yordamchi hisoblanadi. O'quvchilar soatlab

yoki kunlab bir qancha kitoblardan inson tanasi a'zolari bilan bog'liq iboralarni qidirib o'tirmaydi. Balki bir necha soniyada kalit so'z orqali taqdim qilingan matnlar saralamasidan iboralarni yig'ib oladi, xolos. Korpusning "Izlash" ruknidagi qidiruv satriga qo'l so'zi yozib izlanganda bazadagi matnlar majmuasidan *qo'l* so'zi qatnashgan 225116 ta konkordans KWIC (Key Word In Context – "kontekstdagi kalit so'z") shaklida taqdim etildi (1-rasm). Endi foydalanuvchi ushbu konkordanslardan *qo'l* so'zi ishtirok etgan iboralarni jamlab chiqsa, kifoya. Bu **birinchi usul** edi.



1-rasm. Qidiruvga berilgan *qo'l* so'zi qatnashgan konkordanslar KWIC shaklida

Ikkinchi usul: o'sha "Izlash" ruknining "Bigramma" sahifasiga o'tiladi (2-rasm). "Bigramma"ning qidiruv satriga *qo'l* so'zi yoziladi (3-rasm).



2-rasm. "Izlash" ruknidagi "Bigramma" sahifasiga o'tish tugmasi

Uchinchi usul: bu uchun korpusning "Lug'atlar" rukniga o'tiladi. Undagi qidiruv satriga *qo'l* so'zi yozildi. Natijada korpusning iboralar bazasidagi 42 ta ibora taqdim etilganini ko'rish mumkin (3-rasm).

 Bosh sahifa Ta'limiy korpus Izlash Lug'atlar Kirish Ibora:(42 ta) To'liq ko'rish «Gah» desa, qo'lga qo'nadigan qilib olgan: juda itoatkor qilib olgan - Egri qo'llik qildi: mayda o'g'irlik qildi - Ikki qo'lini burniga tiqdi: quruqdan– quruq, evaziga hech narsa ololmay - Ikki qo'lini og'ziga tiqdi: hovliqib, lozim bo'lganidan ko'ra ortiqroq narsani ro'yobga chiqarish uchun intildi - Ikki qo'llab: hech qanday e'tirozsiz va xursandlik bilan - Ko'ngliga qo'l soldi: eng yashirin fikr-o'yini bilishga harakat qildi - Miyasini qoqib, qo'lga berdi: so'rayverib miyasini charchatdi, sergapligi bilan bezdirdi - O'zini qo'lga oldi: o'z xatti–harakatlarini irodasiga bo'ysundirdi - Ochiq qo'l: saxiy - Qo'l berdi I: salomlashish uchun dastpanjasini uzatdi - Qo'l berdi II: murid bo'ldi - Qo'l ko'tardi: 1)urdi 2)tarafdorligini, xayrixohligini bildirdi 3)gapiruvchi ekanini bildirdi - Qo'l keldi: manfaatiga mos tushgan holda qulaylik berdi - Qo'l siltadi: diqqat–e'tiborga nolo'iyq deb topdi - Qo'l urdi: 1)tegdi 2) biror ishni qila boshladi - Qo'ldan berdi: yo'qotdi - Qo'ldan chiqdi: 1)kimningdir hukmidan, ixtiyoridan chiqib ketdi 2)bitdi(qurish, tikish, yozish kabilar) - Qo'ldan ketdi: kimningdir hukmidan, ixtiyoridan chiqib ketdi - Qo'lga kirdi: ixtiyoriga o'tdi - Qo'lga tushdi: 1) tutqun bo'ldi 2) biror nojo'ya ish bilan tutildi 3) aldanib, o'z ixtiyorini berib qo'ydi - Qo'lga oldi: 1)o'z ixtiyoriga o'tkazdi 2)qo'qqisdan hujum qilib bosib oldi 3)hibs qildi, qamash maqsadida tutdi 4) biror yo'l bilan o'z xohishiga bo'ysunnadigan qildi - Qo'li baland: raqobatda, musobaqada vaziyati ustun - Qo'li bormadi: nimanidir qilmaslikka undovchi his–tuyg'uning ta'sirida biror faoliyatga kirisha olmaydi - Qo'li egri: o'zgalarning haqini, mulkini o'g'irlaydigan mayda o'g'ri - Qo'li kalta: cheklangan imkoniyatga ega - Qo'li qisqalik qildi: cheklangan imkoniyatga ega - Qo'li tegmadi: juda bandligi tufayli vaqt topolmaydi - Qo'li uzun: ortiq darajada imkoniyatga ega	
---	--

3-rasm. “Lug’atlar” rukni qidiruv satriga yozilgan qo’l so’zi ishtirokidagi iboralar soni

Ko’k rangdagi “To’liq ko’rish” havolasi bosilganida taqdim etilgan iboralar bilan tanishish mumkin. Ahamiyatlisi, unda nafaqat ibora, balki uning izohi yoki so’zga teng ma’nosi ham beriladi. Hatto omonim shakli ham izohi bilan ko’rsatiladi (4-rasm).

 Bosh sahifa Ta'limiy korpus Izlash Lug'atlar Kirish Ibora:(42 ta) To'liq ko'rish «Gah» desa, qo'lga qo'nadigan qilib olgan: juda itoatkor qilib olgan - Egri qo'llik qildi: mayda o'g'irlik qildi - Ikki qo'lini burniga tiqdi: quruqdan– quruq, evaziga hech narsa ololmay - Ikki qo'lini og'ziga tiqdi: hovliqib, lozim bo'lganidan ko'ra ortiqroq narsani ro'yobga chiqarish uchun intildi - Ikki qo'llab: hech qanday e'tirozsiz va xursandlik bilan - Ko'ngliga qo'l soldi: eng yashirin fikr-o'yini bilishga harakat qildi - Miyasini qoqib, qo'lga berdi: so'rayverib miyasini charchatdi, sergapligi bilan bezdirdi - O'zini qo'lga oldi: o'z xatti–harakatlarini irodasiga bo'ysundirdi - Ochiq qo'l: saxiy - Qo'l berdi I: salomlashish uchun dastpanjasini uzatdi - Qo'l berdi II: murid bo'ldi - Qo'l ko'tardi: 1)urdi 2)tarafdorligini, xayrixohligini bildirdi 3)gapiruvchi ekanini bildirdi - Qo'l keldi: manfaatiga mos tushgan holda qulaylik berdi - Qo'l siltadi: diqqat–e'tiborga nolo'iyq deb topdi - Qo'l urdi: 1)tegdi 2) biror ishni qila boshladi - Qo'ldan berdi: yo'qotdi - Qo'ldan chiqdi: 1)kimningdir hukmidan, ixtiyoridan chiqib ketdi 2)bitdi(qurish, tikish, yozish kabilar) - Qo'ldan ketdi: kimningdir hukmidan, ixtiyoridan chiqib ketdi - Qo'lga kirdi: ixtiyoriga o'tdi - Qo'lga tushdi: 1) tutqun bo'ldi 2) biror nojo'ya ish bilan tutildi 3) aldanib, o'z ixtiyorini berib qo'ydi - Qo'lga oldi: 1)o'z ixtiyoriga o'tkazdi 2)qo'qqisdan hujum qilib bosib oldi 3)hibs qildi, qamash maqsadida tutdi 4) biror yo'l bilan o'z xohishiga bo'ysunnadigan qildi - Qo'li baland: raqobatda, musobaqada vaziyati ustun - Qo'li bormadi: nimanidir qilmaslikka undovchi his–tuyg'uning ta'sirida biror faoliyatga kirisha olmaydi - Qo'li egri: o'zgalarning haqini, mulkini o'g'irlaydigan mayda o'g'ri - Qo'li kalta: cheklangan imkoniyatga ega - Qo'li qisqalik qildi: cheklangan imkoniyatga ega - Qo'li tegmadi: juda bandligi tufayli vaqt topolmaydi - Qo'li uzun: ortiq darajada imkoniyatga ega	
---	--

4-rasm. Korpus bazasidan qo’l so’zi ishtirokida taqdim etilgan 42 ta ibora yoymasi

O’zbek tilidagi somatik iboralarning semantik va grammatik tabiatini to’g’ri anglash, ularning miqdorini, xususiyatlarini chuqur o’rganish asosida tuziladigan frazeologik lug’atlarda ularning yangi ma’nolarini keyingi asr va mustaqillik yillarda yaratilgan materiallar asosida ochib berish o’zbek frazeologiyasi, leksikografiyasi hamda frazeografiyasi oldida turgan muhim vazifalar qatoriga kiradi.

To’rtinchi bobning so’nggi bo’limi “*Avtomatik tarjimani takomillashtirishda frazemalar bazasining o’rni*” deb nomlangan hamda ikki qardosh – o’zbek va turk tillariga mansub frazemalarning bir tildan ikkinchisiga tarjima qilishda tarjimon dasturlari tomonidan qo’yiladigan xatolar va tarjimaning sifatli bo’lishida frazeologik bazaning ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan.

Avtomatik tarjima tizimlari (mashina tarjimasi – MT) tabiiy tilni qayta ishlash sohasining eng murakkab yoʻnalishlaridan biri boʻlib, ayniqsa, frazeologik birliklar tarjimasida sezilarli qiyinchiliklarga duch keladi. Frazeologizmlar semantik jihatdan kompozitsion boʻlmagan, koʻchma maʼno ifodalovchi va koʻpincha, madaniy-konseptual yuklamaga ega birliklar boʻlgani sababli, ularni soʻzma-soʻz tarjima qilish semantik buzilishlarga olib keladi. Shu sababli avtomatik tarjima tizimlarida frazemalar bazasining mavjudligi tarjima sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Yaqin yillardan oʻzbek kompyuter lingvistikasida jahon tajribasiga tayangan holda turli lingvistik tizimlarni yaratish jadallashmoqda. Matn ustida ishlashga moʻljallangan dasturlar va tizimlarni yaratish uchun tabiiy tilni qayta ishlashda asosiy muammolardan barqaror birikmalar, frazemalar, idiomalarni tahlil qilish masalasi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, oʻzbek tilida frazeologik birliklarni avtomatik aniqlash va tarjima jarayonida frazemalar bazasini yaratish yoʻnalishida muhim tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, M. Abjalova, U. Rashidova, A. Hasanov tomonidan tayyorlangan tadqiqotda frazemalarni aniqlashda qoidaviy va kontekstual yondashuvlar integratsiyasi qoʻllanilgan. Shuningdek, M. Abjalova, S. Sharipova tadqiqotlarda idiomatik birliklarning semantik va grammatik moslik muammolari transformer modellar asosida tahlil qilingan.

Oʻzbek va turk tillarining tipologik jihatdan Oltoy tillar oilasining turkiy tillar guruhiga mansubligi shunday leksik va grammatik aynanlikni vujudga keltirmoqda. Bunday soʻzma-soʻz muqobil frazemalar kam sonli, ayrim soʻzma-soʻz iboralar hatto boshqa semantik ifodani beradi. Masalan, turk tilidagi *“göğüs germek”* iborasi hayotdagi barcha qiyinchiliklarga dosh berish, *tishini tishiga qoʻyish*, chekinmasdan, barcha toʻsiqlarga, hayot zarbalariga qaramay oldinga siljishni anglatadi, bu maqsad sari yurishni anglatadi. Oʻzbek tilidagi uning soʻzma-soʻz muqobiliga ega *“koʻkrak kermoq”* frazemasining maʼnosi esa butunlay boshqacha. *Koʻkrak kermoq* iborasi magʻrurlanish va kibrlanishni, uni muayyan ishni aʼlo tarzda bajarganda, muvaffaqiyatli boʻlganda qoʻllash mumkin. Shuningdek, oʻzbek tilida bu ibora, koʻpincha, muvaffaqiyatli, yaxshi oʻgʻilning ota-onasi uchun ishlatiladi. Turk tilidagi *göğüs germek* va oʻzbek tilidagi *koʻkrak kermoq* frazemalari leksik hamda struktural jihatidan bir boʻlsa-da, qoʻllash oʻrni ayrichadir. Bu ikki iboraning asosiy maʼnosini tushunmasdan turk tilidan oʻzbek tiliga soʻzma-soʻz tarjima qilinsa, *“koʻkrakni choʻzish”*, *“koʻkrak choʻzilishi”* va *“koʻkrak bilan yurish”* kabi juda gʻaliz tarjimalar yuzaga keladi.

Aynan tarjimaoldi tahlili jarayonida ekstralingvistik omillarning hisobga olinishi muhimdir. Jumladan, frazemalar tahlilida lingvokulturologik va lingvopragmatik taʼsirlarning eʼtiborga olinishi natijasida milliy koloritning

saqlanishiga erishiladi, tarjimaning adekvatlik va muqobilik darajasi oshadi.

O'zbek tilidagi frazemalar Sh.Rahmatullayev, O'zbek tili izohli lug'ati – O'TIL va boshqa lug'atlardagi miqdori quyidagi raqamlarga ega: o'zbek tilidagi jami FB – 4000ga yaqin: shundan Sh.Rahmatullayev lug'atida 3000ga yaqin; boshqa lug'atlarda esa 2265 tani tashkil etadi. Somatik frazemalarning jami soni 1500ga yaqin: shundan Sh.Rahmatullayev lug'atida 1000ga yaqin; boshqa lug'atlarda 703ta, O'TILda esa 604tani tashkil etadi (2-chizma). Turk tilida frazemalarning jami ko'rsatkichi 10000ga yaqin.

5-rasm. O'zbek tilidagi frazeologizmlar va somatizmlar statistikasi

Mazkur tadqiqot jarayonida o'zbek va turk tillaridagi frazemalarni tahlil qilish natijasida shunday xulosalar yuzaga keldi (6-rasm):

1. So'zma-so'z muvofiq. Tipologik jihatdan qardosh o'zbek(turk tillaridagi iboralarni so'zma-so'z tarjima qilish mumkin. Masalan, *eshikdan quvsang teshikdan kiradi – kapıdan kovsan bacadan girer, joni halqumiga kelmoq – can boğazdan gelmek, ko'z quloq bo'lmoq – göz kulak olmak, tindirmaslik – nefes aldirmamak, jonini bermoq – canını bağışlamak*. Ammo bunday muvofqlik kam sonni tashkil etadi (5-chizmada yashil rangda).

2. So'zma-so'z muvofiq, ammo pragmatik qo'llash ayricha. So'zma-so'z tarjima qilingan frazemalarni har ikki xalq vakillari ayricha vaziyatlarda ularni qo'llashi mumkin. Bu lingvokulturologik hodisa bilan bog'liq, albatta. Masalan, *gōğūs germek* iborasi o'zbek tiliga so'zma-so'z *ko'krak kermoq* frazemasiga ega bo'lsa-da, qo'llanish vaziyati bo'yicha *tishini-tishiga qo'ymoq* frazemasiga pragmatik jihatdan muvofiq (5-chizmada qizil rangda).

3. Semantik muvofiq, ammo leksik birliklari nomuvofiq frazemalar. Bunday iboralar o'zbek va turk xalqlari turmushi va madaniyatida muayyan

vaziyat, o'xshatish va qiyoslashlar natijasida yuzaga kelganligi bois butunlay boshqa leksik birliklardan yuzaga kelgan, ammo mazmuni va qo'llanish vaziyati o'zaro muvofiq keluvchi frazemalar mavjud. Masalan, *tovbasiga tayanmoq – dizini dövmek* (juda pushaymon bo'lmoq), *ikki oyoqni bir etikka tiqmoq – yumurta kapiya dayanmak* (bir ishga shoshilayapti, ammo vaqt kam qolganida qo'llaniladi), *o'ziga choh qazimoq – bindiği dalı kesmek, boshi ko'kka yetmoq – etekleri zil çalmak* (o'ta quvonmoq) kabi (5-chizmada moviy rangda).

6-rasm. O'zbek va turk tillaridagi frazemalar muvofiqligi illyustratsiyasi

Xullas, frazemalarni kompyuterli modellashtirish va ularning parallel bazasini yaratish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- 1) frazeologik birliklarni avtomatik tahlil qilishni osonlashtiradi;
- 2) matn tarkibida frazeologik birliklarning tarjimasini osonlashtiradi;
- 3) lingvistik protsessorda semantik tarzda so'z yoki jumla identifikatori tarzida tushuniladi;
- 4) lingvokulturologik ahamiyati saqlanib qoladi;
- 5) iboralarning semantik yaxlitligi saqlanadi;
- 6) past chastotali birliklarni to'g'ri tarjima qilinishiga erishiladi;
- 7) semantik ekvivalentlikni oshirish imkoni yuzaga keladi;
- 8) madaniy xususiyatlarni saqlash uchun muhim resurs hisoblanadi.

O'zbek tilida frazeologik bazani yaratish va uni neyron tarjima tizimlariga integratsiyalash milliy tilning raqamli resurslarini boyitish va tarjima sifatini xalqaro darajaga olib chiqishning muhim bosqichidir.

Yuqorida frazemalardagi leksemalarning barqaror kombinatsiyasi, frazemalarning semantik yaxlitlik va lingvokulturologik ahamiyatga egaligi, erkin sintaktik bog'lanishga egaligi tahlil qilindi. Aynan shu xususiyatlari sababli bunday barqaror birikmalarning parallel bazasi yaratilishi muhimligi misollar bilan dalillandi. Tarjimada frazemalarni so'z / gap deb hisoblash sabablari, frazema=so'z / gap konsepsiyasi tushuntirildi. Umuman, FBlarning paradigmatic va sintagmatik shakllanish jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etib, murakkab struktural jarayon hisoblanadi, ularning bu xususiyatlari matnda va nutqiy vaziyatda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, frazemalar so'z birikmasi va gap strukturali birlik sifatida, tayyor leksik birlik sifatida olinishi va uning sintaktik munosabat shakllarini olish o'рни belgilab berilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA

